

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma xuquqida

UDK

ALIEVA DILDORA SHERQO'ZIEVNA

MAVZU: «ABDULLA QODIRIY IJODINI XORIJDA
O'RGANILISHI (SHARX VA TAHLIL)»

5A120102-Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi
bo'yicha magistr akademik darajasini
olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
filologiya fanlari nomzodi,
M. Sobirov

Namangan – 2015

ABDULLA QODIRIY IJODINI XORIJDA O'RGANILISHI
(SHARX VA TAHLIL)

Mundarija

KIRISH.....	2
I-BOB.O'ZBEKISTONDA JADIDCHILAR VA QODIRIY ADABIY MEROSIGA MUNOSABAT VA TAHLIL	
1.fasl. Jadid nomoyandalari adabiy merosini yurtimizda o'rganilishi tahlili.....	11
2. fasl. Mamlakatimizda Qodiriy adabiy merosini tadqiqi va unga munosabat.....	24
II-BOB. ABDULLA QODIRIY HAYOYOTI VA IJODI XORIJIY OLILMLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI TAHLILI	
1.fasl. Jadid nomoyandalari adabiy merosini xorijda o'rganilishi tahlili.....	40
2. fasl. Xorijda Qodiriy adabiy merosini tadqiqi va sharxi.....	47
III-BOB A. QODRIYNING "O`TGAN KUNLAR" ROMANI VA TARJIMA MASALASI	
1-fasl. A.Qodiriy va "o`tgan kunlar" romanining yozilishi.....	64
2-fasl. "O`tgan kunlar" romanining ingliz tilidagi tarjimasida milliylikni aks ettirilishi.....	72
XULOSA.....	85
SUMMARY.....	89
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	95

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;

Yurtimizning nihoyat mustabid tuzim va mafkura changalidan qutilib, o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritishi halqimiz hayotida keskin o'zgarishlar yasadi. Jumladan, dunyo xaritasida O'zbekiston Respublikasi degan davlat paydo bo'lganiga 20 yildan oshdi, Bu qisqa davrda; erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning konstitutsiyaviy, huquqiy va amaliy poydevorini qurishga erishildi; Shular bilan birga chet tilini mukammal egallagan mutahassisga ehtyoj oshdi. Shularni hisobga olgan holda, Prezidentimiz Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida yana bir qaror qabul qildiki bu qaror ingliz tili o'qituvchilari zimmasiga halqimizni va yosh avlodni ingliz tilini mukammal o'rgatishni yukladi. Ushbu qarorda qo'yidagilar qayd etilgan.

Fan sohasidagi o'zgarishlar bizdan yangi tadqiqotlar olib borishni, yangi kashfiyotlar, ixtirolarni talab qiladi.

Shu jumladan, mustamlakachilik davrida yurtimiz hurligi va mustaqilligi uchun qatag'on etilgan kishilar nomini tiklash (sababi, qatag'on etilgan kishilar hujjatlari maxfiy saqlangan va hech kimga berilmagan) ularning qilgan fidoyi ishlari va faoliyatini o'rganish, qurbonlari nomini tiklash, xotirasini abadiylashtirish va kelgusi avlodga yetkazish maqsadida 1999 yil 22 iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi Qaror qabul qilindi.

Olimimizning o'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodi o'rganilishini bosqichlarga bo'lishi, ya'ni davrlashtirishi shartli xarakterga ega. Shu o'rinda ta'kidlash joizki Matyoqub Qo'shjonov qodiriyshunoslikni davrlashtirishda yillar va sanalarni emas, balki birinchi galda adib ijodini baholashdagi cheklanishlar, biryoqlamaliklar va ularning mohiyatini ochib berish jarayonlarini nazarda tutgan. Munaqqid tilga olgan oltinchi bosqich, ya'ni istiqlol arafalari va istiqloldan keyingi davr mohiyat e'tibori bilan yetmish yildan ziyodroq

vaqt mobaynida davom etgan qodiriyshunoslik zaminida paydo bo'lgan va ayni chog'da, o'sha paytda yo'l qo'yilgan kamchilik hamda nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qilingan, yangicha kotsepsiya, yangicha tanqid tafakkuriga asoslanilgan davrdir. Binobarin, bu davrda adabiy tanqid yetmish yil hukmronlik qilgan markscha-lenincha metodologiyadan voz kechish barobarida, adabiy jarayonga yangicha metodologik tamoyillar asosida yondasha boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu hol faqat Qodiriy asarlariga emas, balki umuman jadid adabiyoti namoyandalari ijodiga munosabatda o'z aksini topdi.

Shu bois, 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlaridayoq Qodiriy hayoti va ijodiga bog'liq haqiqatlarni to'la tiklash, asarlarini yangicha mezonlar, metodologik tamoyillar asosida qayta baholashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bunda adabiy tanqid jahon adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga xos ilg'or metodologik tamoyillarga tayandi, xoriyda shakllangan qodiriyshunoslik, fitratshunoslik va cho'lponshunoslikning yetakchi kontsepsiyalarni o'rganish orqali e'tiborli jihatlarini ijodiy o'zlashtirish yo'lidan bordi. Adabiy tanqid bu adiblar ijodini baholashda, ayniqsa, Qodiriy asarlari tadqiqida muvofiqlik va to'ldiruvchanlik tamoyillarga tayandi. Bu xususiyat, ayniqsa sho'ro davri qodiriyshunosligiga ham o'z hissalarini qo'shib kelishgan M.Qo'shjonov, S.Mirvaliev, A.Aliev, U.Normatov singari munaqqidlar ijodiga xosdir. Natijada yozuvchi tarjimai holining shu paytgacha oshkor etilmagan qirralari yangi fakt va ma'lumotlar bilan to'ldirildi, ilgari ma'lum bo'lmagan faktlar, qo'lyozmalar, hujjatlar, arxiv materiallari ilmiy muomilaga kiritilib, muayyan xulosalar chiqarildi. Ilgari o'rganilmagan manba va talqinlar qayta tahlildan o'tkazildi. Shunday ishlardan biri Abdulla Qodiriyning farzandi Habibulla Qodiriyning «Qodiriyning so'nggi kunlari» nomli xotira qissasidir. Ma'lumki, H. Qodiriy 70-yillarda «Otam haqida» nomli xotira qissasini e'lon qilib, unda Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida dastlabki ma'lumotlarini bayon etgan edi. Mazkur xotira sho'ro davrida yozilgani bois, unda adib haqida emin-erkin fikr aytish imkoniyati yo'q edi. 80-yillarning oxiriga kelib ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bera boshlagan o'zgarishlar tufayli bir qadar erkinroq fikrlash sharoiti tug'ildi va yangi faktlar,

kuzatishlar, izlanishlar orqali A. Qodiriy to'g'risida ochig'roq yozishga imkoniyat paydo bo'ldi. Darhaqiqat, «Qodiriyning so'nggi kunlari» xotira qissasida ulug'adib hayoti, ijodiy laboratoriyasining ayrim qirralari o'z aksini topdi. CHunonchi, xotiraning «Xitoy konsuli» bobida adib romanlarining faqat O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar orasida emas, balki Sharqiy Turkistonda ham keng yoyilgani ta'kidlanadi. Boshqa tarafdin o'sha davrda siyosiylashgan sho'ro idoralarining tazyiqini ham ko'rsatuvchi hujjatdir. Darvoqe, A. Qodiriyning Amir Umarxonning kanizi haqida roman yozish niyati bo'lganiga oid ma'lumot ayni shu jihatdan xarakterlidir. Adib niyati va bu mavzuga doir ma'lumotlar to'plagani boshqa adabiyotshunoslarning kuzatishlaridan ham uchraydi. Jumladan, «SHarq yulduzi» jurnalida bosilgan «Abdulla Qodiriy va tarixchi Hakimxon» sarlavhali maqolada «Amir Umarxonning kanizi» nomli romanga materiallar to'plash chog'ida tarixchi Muhammad Xakimxon to'raning «Muntahab at tavorix» nomli tarixiy kitobi muhim manba sifatida yozuvchining e'tiborini tortgani ta'kidlanadi. Bu ma'lumot Qodiriyning navbatdagi tarixiy romanlar turkumini davom ettirish niyati jiddiy bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Qahramoni, taniqli olim marhum Ozod Sharafuddinov aytib ketganlaridek, jadidchilik harakati haqida yozilgan asarlar ko'p. Lekin «ularning hammasida ham jadidchilik to'g'ri talqin qlinavermaydi. Aksariyatida u bir tomonlama madaniy-ma'rifiy harakat sifatidagina baholangan»¹. Ushbu asar mana shu «bir tomonlamalik»ka barham berilishiga katta hissa qo'shgan. Jadidchilik o'z davrida juda keng qamrovli harakat bo'lganligi, mustamlaka davridagi o'ta ziddiyatli hayotining hamma jabhalarini o'z ichiga qamrab olgan milliy madaniy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafku-raviy, milliy-ozodlik, islohotchilik va ma'rifiy harakat bo'lgan-ligi tarixiy voqelik hamda faktik materiallar asosida ko'rsatilgan.

Tarix sabog'i – taraqqiyot va kelajak mayog'i – mash'ali deydilar buyuk allomalar. Agar mana shu nuqtai nazardn jadidchilik harakati tarixiga nazar tashlasak, unda bugungi mustaqilligimizni dunyoga kelishi va uni mustahkamlash uchun asos bo'lgan g'oya va kurash usullarini ko'rish mumkin. Buni to'g'ri

anglagan holda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov birigina Abdulla Avloniy misolida jadidchilik harakatiga juda yuksak baho berib yozadilar: «Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohoda qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida milla-timiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir».²

Ushbu ishimizda mustaqillik uchun kurashgan buyuk o'zbek yozuvchi, davlat arbobi va ma'rifatparvar Mahmudho'ja Behbudiy ijodiy merosini horijdagi tadqiqotlari tahliliga qaratamiz. Jadidlar bilan birgalikda Behbudiy ham istiqloq uchun kurashib shahid ketdi. Mustaqillik esa bizlarga nasib etdi. Mana shuning uchun ham uning tarixiy xizmatlarini qadrlash va mustaqillikni mustahkamlab, kelajak avlodlarimizga abadiy qoldirish mas'uliyati bizlarning va ayniqsa, yoshlarimizning zimmasidadir.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti;

Jadidchilar hayoti, faoliyati va adbiy merosi sovuq urush davrida mamlakatimizda hamda horijda ham qisman o'rganilgan, shu izlanishlarda jadidchilarning faoliyatiga turli hil baholar berilgan. Usha ishlarda bildirilgan fikrlarni tadqiq qilish jarayonida quyidagi muammolarni **o'rganishni ob'ekt sifatida** qaraladi:

Tadqiqot ob'ekti-Abdulla Qodiriyning xayoti va ijodiga bag'ishlangan manbalarni o'rganish, hamda adibimizning adabiy merosi bo'lgan asar va she'rlarini tarjimalarini qiyosiy tahlil etish.

Tadqiqot predmeti- O'zbek va Ingliz tilidagi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi xaqida yozilgan manbalarni qiyosiy o'rganish va asar tarjimalarni taxlili.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari;

Ma'lumki, O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ayniqsa, Cho'lpon, Avloniy, Behbudiy, Munavvar

¹ Qosimov B. Milliy uyg'onish jasorat, ma'rifat, fidoiylilik. –T.: «Ma'naviyat», 2002, 3-bet.

² Barkamol avlod orzusi. –T.: «Sharq», 1999, 3-bet.

Qori, Fitrat va boshqa ko'plab vatanparvar-ma'rifatchilarning asarlarida ko'tarilgan. Ushbu jadid nomyondalarining asarlari va mustaqillik yo'lidagi jonkuyarliklari horijlik tadqiqotchilar nazariga tushdi va bu ishlarning nechog'lik haqiqatga mos yoki yaqin kelishligini aniqlash ushbu magistrlik dissertatsiyamizning asosiy maqsad va vazifasidir.

Tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1. Tadqiqotning asosiy maqsadlari:

- yurtimiz ozodligi va mustaqilligi uchun kurashlarda matonat ko'rsatgan, millatni hurlik va erkinlikka chorlagan, mustabid tuzum davrida qatog'on etilgan fidoyi Jadidchilar va Abdulla Qodiriyning mo'tabar xotirasini abadiylashtirish;

- ma'rifatparvar va hurparvar Abdulla Qodiriyning ibratli hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish;

- yosh avlodga yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va g'ururni uyg'otishda, ular Vatan, Millat va Istiqlol taqdiri uchun faol kurashchi qilib o'stirishda va tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy, oily ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos ekanligi anglatish va yo'naltirish;

2. Tadqiqotning asosiy vazifalari:

- Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi
- Qodiriy ning ma'rifatparvarlik mahoratiga doir mulohazalar
- Jadid nomoyandalarini chet el adabiyotshunoslari tomonidan olib borgan ilmiy tadqiqotlari. (sharx va taxlillar)

- Qodiriy xayoti va ijodi xorijda mustaqillikkacha va mustaqillik davrida o'rganilishi va talqini

- Qodiriy "O'tga kunlar" asari va ingliz tili tarjimasi hususiyatlari
- Qodiriy asaridagi milly hususiyatni tarjimasida ingliz va o'zbek tillaridagi qayta yaratish masalasi

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;

Ma'lumki, 80 yillar so'ngida ayniqsa sobiq ittifoq parchalangandan so'ng ma'lum bir darajada o'rganilib kelayotgan jaddid nomoyondalari ma'rifatchilik

yo`lida ko`rsatgan jonbozliklari va yaratgan asrlari yangicha qarashlar va o`tmish davri zaruriyatlarini xisobga olgan xolda o`rganishlar boshlandi. Ular haqida va yozgan, hali qo`lyozma xolida saqlanib kelayotgan asarlari kitob va qo`llanma shakllarida chop etila boshladi. Bu kabi savobli ishlarni O`zbek olimlaridan N. Karimov, O.SHarofiddinov, A. Aliev, Baxodir Karim, D. Quronov, Boybo`ta Do`stqoraev va boshqa ijodkor olimlar amalga oshirishga astoydil bel bog`lashdi. Ular yaratan ijodiy ishlariga yaqqol misol qilib istiqloq qaxramonlari ruknida yaratilgan bir qator to`plamlarni, hamda nomoyondalarimiz hayoti va ijodini o`z ichiga olgan ko`plab risolalarni tilga olsak bo`ladi. Ijodkor olimlarimiz hali hech kim o`rganishga jazm etmagan ma`lumotlarni kitobxonlar etiboriga xavola etib, jadid nomoyondalari haqida aniq fakt va dalillarni ochib bera olishdi.

Jadidchilarning ma`rifatchilik yo`lida olib kirgan yangiliklari yoki ularning ijodlari nafaqat o`zimizning olimlarimiz va xalqimiz tomonidan qiziqib o`rganiladi balki, xorijlik olimlar va kitobxonlarni ham o`ziga jalb etadi. Bu borada adiblarimizning bir qator asarlari ingliz va nemis tillariga tarjimalar qilingan. Asarlarni xorijiy tillarga qay tarzda tarjima qilinganligi tarjimonlar ko`proq nimalarga etibor berganliklari ko`pgina ilmiy ishlar uchun asosiy manba vazifasini o`tamoqda. Misol uchun: Amerikalik olim Edvord Olvort Jadidchilar va o`zbek adiblari ijodi va xayotini yoritib bepgan “Modern Uzbeks” kitobini va bir kator asarlarni ingliz tiliga tarjima qilib nashr ettirdi. Z. Mirzaeva amerikalik olim Edvord Olvortning Behbudiy tomonidan yozilgan “Padarkush”(The Patricide) asarini taxlil qilingan³. U tarjimaga quyidagicha baho berib, “mutarjim boshqa jadid davri asarlarini inglizchalashtirishda yo`l qo`ygan kamchiliklar (so`z va majoziy ma`noli iboralarni tushunmaslik oqibatida tashlab ketilishi, siyosiy ta`sirga berilib, o`zbekcha matnning asliyatdan farqli o`zlashtirilishi va xatto so`z-iboralarni to`lalgicha tushuna olmaslik...ni ) bartaraf etib, dramadagi Behbudiyga xos uslubni saqlab qolgan”<sup>4</sup> tarjimini taxlil qiladi. Olim Bahodir Karim o`zining “Abdulla Qodiriy” deb nomlangan risolasida xorijda qodiriyshunoslik doirasidagi

³ Filologiya masalalari. 1(8) son 2005 yil 124 bet. “Padarkush” tajimasi xususida

⁴ O`sha maqola 125 bet

muloxazalarni talqin etgan⁵.

Ilmiy yangiligi;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, **birinchidan**, biz tomonimizdan tanlangan mavzu avval tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu darajada o'rganilgan, ammo Qodiriy hayoti va adabiy meriosini horijda o'rganilishi to'liq tahlil etilmagan edi.

Ikkinchidan, Mustaqilikka erishilgach horijlik adabiyotshunos olim va izlanuvchilarning bizning adabiyotimizga bo'lgan qiziqishlari ortdi. Ularning o'rgangan va tarjima qilgan ishlari turli nufuzli manbalarda e'lon qilindi. Bu kabi ishlar qatoriga jadid nomoyandalarining xayoti va ijodiga bo'lgan qarashlarni ko'rib o'tish o'rinli bo'ladi. Chunki, jadidchilarimiz ijodi va xayotiga bulgan yurtimizdagi e'tibor juda kattadir.

Uchinchidan, mavzu yuzasidan tanlangan manbalar va materiallar asosida mavzu milliy mustaqillik qarashlar va g'oyalari asosida tahlil qilishga harakat qilinadi. Albatta, horijlik olimlarning adabiyotimizga munosabatlari olimlarimiz fikriga har doim ham mos emas. Xo'sh ular nimalarda farq qiladi. Shu maqsadda ularning ishlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Xorijlik va o'zbek olimlari bajargan izlanishlar o'rtasidagi mutonosibligini aniqlash va ularni tahlil qilish Adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasi fanlari uchun juda ahamiyatlidir.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili);

Tanlangan mavzuni o'rganish va tarixiy jihatdan yoritilishida O'zbekiston Respublikasining Markaziy davlat arxividagi tegishli arxiv materiallari, Horijlik adabiyotshunoslarning faoliyatiga doir vaqtli axborot vositalari materiallaridan asosiy manba sifatida foydalaniladi. Bulardan tashqari, taniqli shaxslarning shaxsiy materiallari, jadidchilik tarixini o'rgangan o'zbek va horijlik tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ham yetarli e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi;

Ilmiy tadqiqot natijalarini oliy ta'limda 5120100-ingliz tili bakalavr talbalari va 5A120101- Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) magistr'lari uchun bir

⁵ Bahodir Karim "Abdulla Qodiriy". Toshkent. "Fan" 2006 yil . 203-221 betlar

qator ingliz tilida o`qitiladigan "Tarjima nazariyasi", "Leksikologiya", "Ingliz va o`zbek tillari qiyosiy tipologiyasi", "Tarjima nazariyasi", "Chet el adabiyotshunosligi tanqidchiligi va tarixi", "Xorijiy adabiyotshunoslik" va "Adabiyot nazariyasi" darslarida qo`llash va bilim olish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;

O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning asarlari, O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risidagi", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlari va boshqa me`yoriy hujjatlari olindi. Xorijlik olimlardan Edvort Olvort, Adib Xalid, Shon Tomas Lion, Choy van Vu, Edvard Said, Lidenberger va Uzbek olimlaridan Bahodir Karim, Izzat Sulton, Axmad Aliev, Begali Qosimov, Namidullo Boltabaev va boshqa etuk olimlar izlanishlari lingvistik metodologik asos sifatida foydalanildi.

Ish tuzilmasining tavsifi

Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi "Abdulla Qodiriy ijodini xorijda o`rganilishi (sharx va tahlil)" mavzusida bo`lib, tadqiqotda Qodiriyning yurtimiz va xorijda o`rganilishi sharxlangan va tahlil qilingan

Ishning kirish qismida magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi, tadqiqot ob`ekti va predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi (tahlili), tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati va ish tuzilmasining tavsifi kabi tasnifiy belgilari yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "O`zbekistonda jadidchilar va Qodiriy adabiy merosiga munosabat va tahlil" deb nomlangan. Bob ikki faslga bo`linib, jadid nomoyandalari adabiy merosini yurtimizda o`rganilishi tahlili va mamlakatimizda Qodiriy adabiy merosini tadqiqi va unga munosabati kabi masalalarni yoritishga qaratilgan. Ushbu bobda Jadid nomoyandalarining hayoti va

ijodini sobiq sovet davri va mustaqillik davri bilan qiyoslagan holda tadqiq etilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Abdulla Qodiriy hayoyoti va ijodi xorijiy olimlar tomonidan o’rganilishi tahlili”ga ba’g’ishlangan bo’lib, mavzuga muvofiq holda jadid nomoyandalari adabiy merosini xorijda o’rganilishi tahlili va xorijda Qodiriy adabiy merosini tadqiqi va sharxi kabi fasllarga bo’lib o’rganilgan.

So’ngi uchinchi bob “A. Qodriyning "O’tgan kunlar" romani va tarjima masalasi” qiyosiy tahliliga qaratilgan. U ikki qismga bo’lingan holda o’rganilgan. Ular “A.Qodiriy va "o’tgan kunlar" romanining yozilishi” va “"O’tgan kunlar" romanining ingliz tilidagi tarjimasida milliylikni aks ettirilishi” kabilardir

Izlanish so’ngida asosiy boblarda keltirilgan masalalarga talaba tomonidan hulosalar chiqarilgan. Xulosada tadqiqot yuzasidan fikrlar umumlashtirildi, mavzuga oid nazariy masalalarning echilishi va amaliy ahamiyati ko’rsatib berildi

I BOB.O'ZBEKISTONDA JADIDCHILAR VA QODIRIY ADABIY MEROSIGA MUNOSABAT VA TAHLIL

1 fasl. Jadid nomoyandalari adabiy merosini yurtimizda o'rganilishi tahlili.

Ma'lumki, o'tgan asr boshidagi milliy uyg'onish harakati namoyandalari va ularning faoliyati, asarlari sho'ro davrida muttasil turli siyosiy ayblovlar bilan qoralanib kelindi. Ayni chog'da, ilg'or millatparvar ziyolilar, taniqli yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos va munaqqidlarda o'sha davrda yashab ijod etgan adiblarning ijodlariga qiziqish susaymagan. Jumladan, ular Cho'lpon va Fitratlarning ta'qiqlangan asarlarini imkon topib o'qishgan, fikr yuritishgan. Taniqli munaqqidlardan biri Umarali Normatovning aytishicha, Cho'lpon she'rlari yon daftarlarda qo'lda ko'chirilib o'qilgan. Ozgina imkon tug'ilgan 60-yillardagi kabi «iliq epkin» pallalarida ular ijodini yuzaga chiqarish imkoniyatini izlashgan. Xususan, o'sha 60-yillarning oxiridagi tanqidchilik faoliyatidagi ilg'or tendentsiya fikrlarimizning isbotidir. Bu esa.80-yillarning oxiriga kelib, ayniqsa, istiqlol davrida asr boshidagi jadid adabiyoti muammolari adabiy tanqidning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylangani qonuniy jarayon ekanini bildiradi.

Umuman, adabiy tanqidning ushbu sohani yoritishga doir faoliyatini kuzatganda bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha yo'nalishda izlanishlar olib borganligi ayon bo'ladi. Bu yo'nalishlar orasida, ayniqsa, ijodkor biografiyasi va ijodiy laboratoriyasiga oid kuzatishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda munaqqidlar milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodiga oid manbalarni, ma'lumotlarni topib, ularni tarixiy voqea va faktlar asosida tadqiq etish, sharhlash usuli yetakchilik qiladi. Adabiy tanqidning bu yo'nalishdagi faoliyatida uning tarix bilan hamkorligi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etgan.

Ushbu kuzatishlar vositasida tanqidchilar ijodkor jadidlar hayoti va faoliyatini o'rganish asnosida umuman jadidchilik harakati, uning kontseptsiyasi haqida ham tarixiy faktlar asosida qimmatli ma'lumotlar berdilar. Natijada bu davr adabiy hayotining haqqoniy tarixiy lavhasini yaratishga erishildi, vatanimiz tarixining asr boshidagi sahifalari xolis sharh va izohlar bilan to'ldirildi. Garchi

qisqa muddatni o'z ichiga olgan bo'lsada, yangicha metodologiya va kontseptsiyaga asoslangan adabiy tanqid faoliyatning ushbu bosqichi beqiyos ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Chunki, birinchidan, bu bosqichda asr boshidagi adabiy muhit haqida ob'ektiv ma'lumot berilgan va shu asosda adabiyotimizning yangi tarixi yaratilishiga asos solingan bo'lsa, ikkinchidan, sho'ro tuzumining qatag'onga tayanilgan siyosatining qurboniga aylangan va uzoq yillar maboynida nohaq ayblovlar bilan ayblanib kelingan ijodkorlarimizning haqiqiy orzu-istaklari ijobat bo'ldi-ularning ijodiy merosi xalqqa qaytarildi.

Munaqqidlarimiz milliy uyg'onish davri adabiyotining yetuk namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon singari ulug' adiblar hayoti va faoliyatini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlarda asr avvalida nashr etilgan gazeta va jurnallardan, arxiv materiallaridan unumli foydalanishgan. Jumladan, bu borada Behbudiy shaxsi va uning jadidchilik faoliyati bilan bog'liq ilmiy izlanishlar alohida e'tiborga loyiq. 1990-yillar boshida «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining ikki sonida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Solih Qosimovning «Behbudiy va jadidchilik», «Yoshlik» jurnalining 1990 yil 1-sonida esa taniqli olim Begali Qosimovning «Karvonboshi» sarlavhali maqolalari e'lon qilindi. Ularda Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Solih Qosimovning maqolasida yetmish yil davomida burjua oqimi sifatida qoralanib kelingan jadidchilik harakati ilk marotaba milliy istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan ma'rifatparvarlik harakati deya ta'riflanib, Turkistonda bu harakatning boshida Mahmudxo'ja Behbudiy turgani asoslab beriladi hamda uning faoliyati ham dunyoviy, ham diniy asoslarga tayangani tahlillar bilan ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada jadidchilik harakatining asl maqsadlari haqida fikr yuritilib, uning, sho'ro siyosatdonlari aytganidek, panislomizm bilan bir hodisa emasligini, bu harakat zahirida ma'rifatparvarlik yotgani dalillar bilan isbotlab berilgan. Ismoil Gaspirali asos solgan «usuli jadid» maktablariga o'xshash ko'plab maktablarning Turkistonda Behbudiy tomonidan ochilgani, ular uchun darsliklar yaratilgani ham atroflicha yoritilgan.

Begali Qosimovning maqolasida esa, Behbudiy shaxsi, hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar berilib, asosiy e'tibor uning pedagogik, publitsistik faoliyatiga qaratilgan. Muallif Behbudiyni jadidchilik harakatining karvonboshisi sifatida ta'riflab, uning vafoti munosabati bilan 20-yillarda chop etilgan Sadriddin Ayniy, Fitrat va Cho'lpon she'rlaridan parchalar keltiradi. Bu she'rlarning yaratilishiga sabab bo'lgan Behbudiy aslida kim bo'lgan, bugungi kitobxon bu alloma haqida nimalarni biladi, deya savollar qo'yib, ularga batafsil javob beradi va ma'rifatparvarning «Kitobat ul-atfol» darsligidan bir parchani o'quvchilar e'tiboriga havola qiladi.

Umuman, bu kabi chiqishlarda o'tgan asr oxirlari va mustaqillikning dastlabki yillari adabiy tanqidchiligi uchun xarakterli xususiyatni, ya'ni ma'rifatparvar adiblarning qisqacha tarjimai holini yoritish, asarlaridan parchalar berish orqali ularni ommaga tanishtirish usulini kuzatish mumkin. Jumladan, «Fan va turmush» jurnalining 1989 yil noyabr oyi sonida ham Behbudiyning «Bayoni xaqiqat» nomli maqolasi, 1991 yil 11 sonida esa tadqiqotchi Normurod Avazovning qisqa so'zboshisi bilan «Qozoq qarindoshlarimga ochiq xat»i bosildi. Bu harakatlar Behbudiy hayoti va ijodi haqida yangicha qarashlarning yuzaga chiqishiga turtki bo'ldi, ulug' ma'rifatparvar haqida xolis nuqtai nazarining shakllanishiga xizmat qildi. Tanqidchilikdagi ayni shu tendentsiya milliy uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari faoliyatini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlarga xos xususiyatdir. Chunonchi, Begali Qosimovning Avloniy tavalludining 110 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan «Sapyorlar ko'chasidagi uy» , Ahmad Alievning «G'ozlari Yunus haqida so'z» , Nurmuhammad Xolliievning «Hamza: o'tmish emas, istiqbol» , Saidahmad Siddiqiy Ajziy tavalludining 125 yilligiga professor Begali Qosimovning qisqa sharhi bilan bosilgan Vadud Mahmudning «Turk shoiri Ajziy» singari maqolalari ham shunday chiqishlar sirasidandir. Bunday qimmatli ma'lumotlar, manbaalarning e'lon qilingani o'tgan asr boshida yashagan ijodkorlar hayoti va faoliyati haqida alohida tadqiqotlarning yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Bu davr tanqidchiligidagi yana bir muhim jihat shundaki, munaqqidlar

yozuvchi, shoirlarning ijodiy laboratoriyasiga kirib, muayyan asarlarning yaratilish tarixi, ularning yetakchi kontseptsiyasi, mavzu ko‘lami, g‘oyaviy motivlarini tahlil qilib, keng o‘quvchilar ommasiga yetkazishdi. Ana shu mavzudagi maqolalarda badiiy asarlar taqdiriga aniqlik kiritish tendentsiyasi yetakchilik qildi. Jumladan, Boybo‘ta Do‘stqoraevning «Padarkush»ning g‘aroyib sarguzashti», Hamidulla Boltaboevning «Yurt qayg‘usi», Sherali Turdievning «Tong yulduzi qismati», O‘ktam Mirzaxo‘jaevning «Cho‘lpon haqida qaydlar», Naim Karimovning «Kechaning kunduzi bormi?», Dilmurod Quronovning «Yana kecha va kunduz haqida», Naim Karimovning «Unutilgan sahifa», Umarali Normatovning «Adolatning yo‘llari mashaqqatli...», Boybo‘ta Do‘stqoraevning «Cho‘lpon: gazeta-ettinchi davlat» singari maqolalari xarakterlidir.

Adabiy tanqid ijodkorlarning ijodiy laboratoriyasiga kirarkan, adabiyotshunoslik ilmi oldida muammo bo‘lib turgan jihatlarni yoritishga harakat qildi. Bunday muammolar qatorida Behbudiyning «Padarkush» asari yaratilish tarixi, Fitrat dramalari, Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romani taqdiri kabi katta mavzulardan tortib, muayyan bir she‘rning yaratilishiga turtki bergan omillargacha qamrab olingan. Chunonchi, «Padarkush» dramasining yaratilishi bilan bog‘liq maqolalarda turli-tuman ma‘lumotlarni kuzatamiz.

Shuhrat Rizaev «Istibdodga qarshi isyon» maqolasida Behbudiyning «Padarkush» asari o‘zbek dramaturgiyasidagi ilk asar ekanligini Miyon Buzruk Solihov qarashlariga tayanib bayon etadi. Shu bilan birga, dramaturg bu asarida faqat ma‘rifatchilik g‘oyalarini ilgari surish bilan cheklanmay, ayni chog‘da, turli detallar, tagma‘noli so‘zlar vositasida millat, vatan taqdiriga bog‘liq katta g‘oyalarni ifodalaganini ta‘kidlaydi. Xususan, ilmsizlik oqibatida kelib chiqadigan ichkilikbozlik, fohishabozlik kabi badbinliklar millatning e‘tiqodini buzuvchi illat ekanligi birgina fakt - Farg‘onada jinoyatchilikning o‘ssishi o‘n yil ichida «butun Rossiya imperiyasidan ikki barobar ortiq ekanligi...»ni uqtirish bilan ko‘rsatib beradi. Umuman, biz yuqorida tilga olgan maqolalarning muhim ahamiyati shundaki, ularda Behbudiyning ijodkorgina emas, balki jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi sifatida talqin etiladi.

Jadid adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi jadidchilik harakati bilan uzviy bogʻliqlikda oʻrganilgan maqolalardan yana biri tadqiqotchi Zebunniso Ahrorovanning «Behbudiy kutubxonasi» maqolasi. Maqolada ulugʻ maʼrifatparvarning nafaqat maktablar ochib, gazeta-jurnal tashkil etib, darsliklar chop qildirgani, ayni paytda, Samarqandda oʻz davrida mashhur boʻlgan, keyinchalik «Behbudiya» deb nom olgan kutubxonaning ham tashabbuskori va moddiy taʼminotchisi boʻlgani taʼkidlanadi. Behbudiy 1908 yilda ochgan bu kutubxona qisqa vaqt ichida ziyo maskaniga aylanib, 1000 jildli nodir kitoblar fondiga ega boʻlgan. Darhaqiqat, Behbudiyning bu tadbiri jadidchilik faoliyatidagi muhim qirralardan biri ekanligiga maqolada alohida urgʻu beriladi. Boyboʻta Doʻstqoraevning «Padarkush»ning gʻaroyib sarguzashti» maqolasida ikkita masalaga: a)«Padarkush» dramasi qachon yozilib, qachon chop etilganiga; b) asarning muqovasidagi «Borodino jangining 100 yilligiga bagʻishlanadi», degan yozuv nimani anglatishiga oydinlik kiritilgan. Muallif ushbu masalalarga doir koʻplab manbalarni oʻrganib, kuzatib, asar 1911 yil oxiri 1912 yilning boshlarida yozilgan, degan xulosaga kelgan. «Padarkush»ning nega Tbilisi senzurasidan oʻtganligini ham ishonarli yoritgan. Maʼlum boʻlishicha, 1912-1913-yillarda general-mayor Ilya Odishelidze degan shaxs Samarqand harbiy gubernatori boʻlgan. Oʻsha paytlarda Borodino jangining 100 yilligi sanasi nishonlanayotgan boʻlib, qoʻlyozmani nashr etishga ruxsat soʻrib unga murojaat etilgan. Kitobdagi «hiyla» yozuv shu tariqa muqovada paydo boʻlgan. Ayniqsa, bu yillarda tanqidchilikning diqqat markazida Qodiriy, Fitrat va Choʻlpon ijodlari turgani tabiiy hol edi. Milliy oʻygʻonish davrining yetakchi namoyandalari boʻlgan bu ulugʻ adiblar hayoti va ijodiga bagʻishlangan koʻplab adabiy-tanqidiy maqolalar pirovard natijada oʻzbek adabiyotshunosligida qodiriyshunoslik, choʻlponshunoslik, fitratshunoslik kabi yangi yoʻnalishlarning toʻla shakllanishiga olib keldi. Zero, bu uch alloma XX asr oʻzbek adabiyotini ham mazmun va ham shakl jihatdan boyitgan, prozada Qodiriy, dramaturgiyada Fitrat, sheʼriyatda esa Choʻlpon XX asr oʻzbek realistik adabiyotiga asos solgan ijodkorlardir.

Soʻnggi davr tanqidchiligida bu ijodkorlar faoliyatiga keng va chuqur

yondashilgani masalaning mohiyati metodologik jihatdan to'g'ri belgilanganidan dalolat beradi. Chunki Qodiriy, Fitrat va Cho'lpon ijodi 70 yil davomida sho'ro hokimiyati tomonidan ta'qib va tazyiqqa olib kelingan, hukmron komfirqa mafkurachilari tarafidan turli ayblarga griftor etilgan, bahs-munozaralarning doimiy mavzusiga aylantirilgan edi. Masalaning yana bir jihati esa shundaki, bu ijodkorlarning asarlari o'z zamondoshlarining ijodi namunalaridan badiiy jihatdan ancha yuksak darajada bo'lib, XX asr o'zbek adabiyotini tom ma'noda yangilagan edi. Ularning ijodi sho'ro davri nazariyotchi va mafkurachilarining eng ko'p ta'qibiga uchragani boisi ham shundan. Zero, 1956 yildayoq yozuvchi sifatida nomi oqlangan, asarlarini keng kitobxonlar ommasi o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan Qodiriy ijodi hatto mustaqillikkacha o'zining to'la haqli, xolis bahosini olmadi. Metod va dunyoqarash muommasi bilan bog'liq bahs-munozaralar quyuni muttasil Qodiriy ijodiyoti tepasida aylandi. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov adib ijodini o'rganish tarixini olti bosqichga ajratadi va har bir bosqichning o'ziga xos jihatlari, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib berdi. Uning talqiniga ko'ra, olti bosqichning beshtasi sho'ro davriga oid bo'lib, mazkur bosqichlarda yozuvchi ijodini o'rganishda ko'plab cheklanishlar bo'lgan. Jumladan, XX asr boshlaridan 20-yillarning ikkinchi yarmigacha birinchi bosqichida Qodiriy ijodi bo'yicha deyarli alohida maqolalar chop etilmagan bo'lsa-da, «O'tgan kunlar» romani katta qiziqish bilan qabul qilingan, asarning yaxlit boblari yod olingan. Ikkinchi bosqichda, ya'ni 20-yillarning oxiriga kelib faqat Qodiriy ijodi emas, balki Fitrat, Cho'lpon asarlari ham siyosiy ayblovlar bilan qoralana boshlagan. Mixail Shverdin, Sotti Husayn va Oybekning adibga ayblar qo'yib yozilgan maqolalari shu ikkinchi bosqichda e'lon qilingan. M Qo'shjonov uchinchi bosqichga Abdulla Qodiriy nomini tiklash yo'lidagi sa'yi-harakatlarni kiritgan. U komfirqaning XX se'zdidan keyin yozuvchi nomini oqlashda muhim rol o'ynagan ikki shaxsning jasoratini alohida ta'kidlaydi: «...Ulardan biri o'sha paytlari respublikamizda oliy lavozimlarni egallab turgan N. Muhitdinov, ikkinchisi yirik adabiyotshunos olim I. Sultonovdir. N. Muhitdinov bu savob ishga siyosiy jihatdan zamin tayyorladi va yo'l ochdi. I Sultonov esa, A Qodiriy bizga

yot adib emasligini ilmiy ravishda isbotlab berdi. Shunga qaramay, hali Qodiriy asarlarini emin-erkin tahlil qilishga imkon yo‘q edi, chunki «Qodiriyning oqlangani bilan u mansub bo‘lgan g‘oyaviy oqim-jadidizm qora taxtaga tortib qo‘yilgan edi. Shu sababdan Qodiriy haqida gapirmoqchi bo‘lganlar jadidizmni ikki marta so‘kib, adib haqida biror fikr bildirishi mumkin edi, xalos». O‘tgan asrning 60-yillaridan 80 yillar boshigacha bo‘lgan davrni M. Qo‘shjonov to‘rtinchi bosqich deb belgilaydi. Bu bosqichga Sobir Mirvalievning «O‘zbek romani» kitobidan tortib 70-yillarning boshida «O‘zbekiston madaniyati» gazetasida e‘lon qilingan sotsialistik realizm va Abdulla Qodiriy ijodi mavzusidagi bahs- munozaralargacha kiradi. Beshinchi bosqichga esa, 80-yillardagi mafkuraviy kurashni va Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat ijodlariga bag‘ishlangan munozaralarni o‘z ichiga oladi. Nihoyat, oltinchi bosqich sifatida M.Qo‘shjonov mustaqillik yillarida qodiriyshunoslikning tom ma’noda yangi davri boshlanganini, bunda Abdulla Qodiriy tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi Prezidentimizning Farmonining ulkan ahamiyat kasb etganini, adib ijodini emin-erkin, yangicha tafakkur asosida qayta baholash jarayonlari boshlanganini ta’kidlaydi.

Jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan Fitrat ijodini o‘rganishga ham 80-yillarning oxiridan kirishila boshlandi. Bu paytga kelib B.Qosimov, E Karimov, N. Karimov, Sh Turdiev singari taniqli fitratshunoslar safiga X. Boltaboev, I. G‘aniev, G. Rahimova kabi ko‘plab yosh olimlar qo‘shildi. Ayni o‘sha yillarda e‘lon qilingan maqolalarda boshqa jadidchilar kabi Fitratning ham hayoti va ijodi, biografiyasining ochilmagan qirralari haqida ma’lumotlar berib, uning asarlari bilan xalqni tanishtirish asosiy maqsad qilib belgilangan edi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillikkacha yozilgan maqolalarda yangicha tafakkur tarziga xos belgilar bilan bir qatorda, sho‘ro davri tanqidchiligidagi adabiy ehtiyotkorlik, Fitratning sho‘ro hukumatiga xizmat qilgan ijodkor ekanligini isbotlashga urinish tendentsiyalari bo‘rttirilganini ko‘ramiz. Bu jihatdan tadqiqotchi G. Rahimovanning «Munozara» uyg‘onish darakchisi», N.Karimovning «Mavlono Fitrat», B.Qosimovning «Tarix va taqdir» rukni ostidagi suhbat, X. Boltaboevning «Noma’lum Fitrat» maqolalari xarakterlidir. Bu maqolalarda Fitrat,

bir tomondan, jadidchilik harakati bilan bog‘liq holda xalqni istibdodga qarshi uyg‘onishga chaqirgani aytilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning asta-sekinlik bilan sho‘rolar pozitsiyasiga o‘ta boshlaganini isbotlovchi qarashlar ilgari surilgan. Bunday hol 80-yillar oxirlariga kelib adabiy tanqidda eskicha metodologik tamoyillar (markscha-lenincha metodologiya) bilan yangicha metodologik qarashlar o‘rtasida kurash jarayoni kechganligini ko‘rsatadi. G.Rahimova «Munozara» asari talqini asosida Fitrat dunyoqarashining shakllanish jarayonlarini tadqiq etishga harakat qiladi. Chunonchi, Fitratning Istambulda tahsil olgani, u yerdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar dunyoqarashining shakllanishida asosiy omil bo‘lgani va «Munozara» asarining yaratilishiga turtki bergani qayd etiladi. Maqolada «Munozara»ga munosabat bildirgan V.B.Andreev, V.Klimovich kabi rus olimlarining fikrlariga munosabat bildirar ekan, muallif Fitratni diniy mutaassiblikka qarshi kurashuvchi materialist sifatida ta’riflaydi. «SHaxs davr mahsuli ekan, shu jamiyatning jarohati-yu dardlari, o‘rish-o‘zgarishlarini o‘zida his qiladi. Binobarin, Fitrat ham materializmga birdan kelib qolgan emas, u bunga klassik merosimizni, xususan, Bedil, Hayyom falsafasini, dunyoviy bilimlarni chuqur o‘rganish asosida hamda ijtimoiy-siyosiy voqealarga qizg‘in aralashish asnosida erishdi. Hozirgi kunda biz uchun Fitratning ateist sifatida namoyon bo‘lishidan ko‘ra, islom e’tiqodining tarafdori- musulmon ziyolisidan o‘zi sig‘ingan din dogmalarini inkor eta borib dahriylik pozitsiyasida turib kurashgan yozuvchi darajasiga ko‘tarilgani muhimroqdir.» N.Karimov ham «Mavlono Fitrat» maqolasida adib hayoti va ijodi, uning dunyoqarashi haqida ma’lumot beradi, shuningdek, uning «Zahroning iymoni» hikoyasini o‘quvchilar e’tiboriga havola etadi. Maqolada muallif so‘nggi davr tanqidchiligida Fitrat va Cho‘lpon ijodi jiddiy o‘rganla boshlanganini, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli tanqidiy tafakkurda ham evrilishlar yuz ko‘rsatayotganini to‘g‘ri qayd etib, Fitratning hayoti, ijodiy faoliyati va dunyoqarashining shakllanishini yangicha mezonlar asosida yoritishga intiladi. Biroq olimning fikr-mulohazalarida, garchi bu maqola mustaqillik arafasida yozilgan, qolaversa, Fitrat faoliyatini jadidchilik harakatining yetakchi g‘oyalari bilan bog‘lashga harakat aniq ko‘rinib tursa-da, boshqa tarafdin,

adibning sho‘ro mafkurasiga xizmat qila boshlaganini ham ko‘rsatish, jumladan, 23-24-yillarda Fitratning Moskvadagi Sharq tillari institutida ishlagani, ya’ni «davrxizmatida» bo‘lgani quyidagicha ta’kidlanadi: «U o‘sha yillari Oktyabr inqilobining xalqqa bergan va berayotgan samaralarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Lenin va kommunistik partiyaning sharq xalqlari hayotiga yangilik shabadalarini olib kirganligiga ishondi, ijodning ilk bosqichidagi ayrim milliy biqqlik holatlarini bartaraf qildi, adib imkoni boricha xalq va davr xizmatida bo‘lishga intildi».

N.Karimov Fitrat ijodidagi ateistik yo‘nalishga urg‘u beradi va uni ateist ijodkor darajasiga ko‘taradi. Xususan, nasriy asarlarida Fitrat diniy aqidalar ustidan kulganini, yozuvchi «...xudo, payg‘ambarlar va maloikalar haqidagi afsonalarning mehnatkash xalq ommasi ongini zaharlash, uning ijtimoiy ozodlik va baxtli turmush sari intilishlarini kishanlash uchun o‘ylab topilgan qurol ekanini ko‘rsatadi», deya alohida ta’kidlaydi.

Albatta, fitratshunoslikda bunday fikrlarning uchrashi bejiz emas. Zero, adibning «Qiyomat» kabi hikoyalari, «Shaytonning tangriga isyoni» dramasining zohiriy mazmunida yuqorida aytilgan g‘oya yetakchilik qilayotgandek taassurot qoladi. Biroq ularning botiniy mazmuniga, ramziy jihatlariga nazar tashlasak, boshqacharoq manzaraning guvohi bo‘lamiz. Fitrat diniy mavzu vositasida jaholat batqog‘iga botgan kishilarning ma’naviy inqirozini, iymonsizligini, shuningdek, shaxs erki masalasini ko‘rsatishga harakat qilgan. Buni mashhur «Qiyomat» hikoyasida ham, N.Karimov nashrga tayyorlagan «Zahroning iymoni» hikoyasida ham ko‘rish mumkin. Chunonchi, «Zahroning iymoni» hikoyasida jodugarga aylangan Zahro oxir -oqibat odamga non emas, iymon kerak deb tavba qilishga urinadi. Umuman, bu asarning yetakchi kontseptsiyasi Oishaning quyidagi so‘zlarida o‘zining aniq ifodasini topgan: «-Kampir, endi sening tavbang qabul bo‘lmaydir. Bobuling bilan chiqib ko‘kka uchib ketgan bo‘z otli odam sening iymoning edi. Sen imonsiz bo‘lib qolgansan. Imonsizning tavbasi qabul bo‘lmaydir!»-dedi . Demak, bu hikoyada ham gap maloiklarning xudoga e’tirozi yoki shubhasi borasida emas, balki musulmonchilikda odamlar imon-e’tiqodlarini pok saqlashi zarurligi haqida ketmoqda.

Etakchi fitratshunoslaridan biri H.Boltaboevning «Noma'lum Fitrat» maqolasida Fitrat ijodining umumiy kontsepsiyasi metodologik jihatdan to'g'ri belgilangan. Jumladan, ijodining ilk namunalaridan bo'lgan «Sayha» to'plami haqida fikr yuritarkan, maqola muallifi majmuadagi vatanparvarlik va istiqloq motivlari uchun Fitratni nafaqat Buxoro hukumati, ayni paytda, Chor Rossiyasi hukumati ham ta'qib qila boshlaganini Fayzulla Xo'jaev fikrlarini keltirish orqali asoslaydi. Adibning «Munozara» asari, diniy mavzudagi «Qiyomat» va boshqa bir qancha hikoyalari haqida mulohaza yuritarkan, X.Boltaboev, G. Rahimovanning fikrlariga e'tiroz bildirib, Fitratning asarlari dinga qarshi emas, balki diniy xurofotga, bid'atga qarshi kurashuvchi asarlar, deya to'g'ri xulosalarga keladi. Muallif Fitrat dunyoqarashi xalqchil dunyoqarash ekanligini alohida ta'kidlaydi, uning dramalari, adabiyotshunos va tilshunos sifatidagi faoliyatiga, mumtoz adabiyotimizning bilimdoni sifatida yozgan maqolalariga urg'u beradi. Maqolasi yakunida H. Boltaboev Fitratning boy ijodiy merosini o'rganish kun tartibidagi asosiy vazifalardan zkanligini aytarkan, biz ham shu o'rinda olimning bu borada keyingi yillaridagi sa'yi-harakatlari ibratli ekanini, uning fitratshunoslikka munosib hissa qo'shib kelayotganini e'tirof etishni joiz deb bilamiz. Istiqloq davriga kelib Fitrat ijodi jiddiy o'rganildi, fitratshunoslik yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu yo'nalishda doktorlik va nomzodlik tadqiqotlari yaratildi, maqola va risolalar chop etildi, yosh fitratshunos olimlar yetishib chiqdi. Eng muhimi, Fitrat ijodini o'rganishda xolislik, teranlik, matn bilan ishlash yetakchi usulga aylandi. Qolaversa, adib ijodi xorijdagi fitratshunoslik bilan qiyosiy aspektda o'rganila boshlandiki, bu yangi davr tanqidchiligining muhim yutuqlaridan biridir.

Fitrat ijodi tahliliga bag'ishlangan xorijlik va o'zimizning olimlarning tadqiqotlarini qiyoslasak, ularda ko'pgina mushtarak jihatlari bilan birga, tafovutli tomonlar ham borligiga guvoh bo'lamiz. Chunonchi, xorijlik adabiyotshunoslar Fitratni ateist va materialist, deb uzil- kesil xulosani beradilar. O'zbek adabiyotshunoslari esa, so'nggi davrdagi tadqiqotlarida, Fitratning diniy mavzudagi asarlarida turli xil ramziy obrazlar, poetik ko'chimlar vositasida adib milliy istiqloq motivlarini ilgari surganligini, davr fojealarini ochishga xizmat

qilganligini asoslab berishdi.

Umuman, bu davrning yangicha metodologik tamoyillarni o'zida mujassamlashtirishga intilayotgan, tafakkurini qayta qurayotgan adabiy tanqid oldida nafaqat Qodiriy, Fitrat yoki Cho'lpon ijodi haqida ma'lumotlar berish, balki ularning tarjimai holi, qatag'on qurboniga aylanishganining tub sabablari, qolaversa, ularning butun ijodiy merosidan keng kitobxonlar ommasini xabardor qilish vazifasi turadi. Zotan, istiqlolga erishib, o'z dunyoqarashini qayta qurayotgan xalq o'zining ozodligi yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsatgan ijodkorlar hayoti va ijodiy merosi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmog'i lozim edi.

80-yillarning oxirilaridan boshlab va asosan mustaqillikka erishilganidan so'ng Cho'lpon ijodiga bag'ishlangan yuzlab maqolalar, o'nlab kitoblar chop etildi. Ularda ulug' shoir ijodiy merosiga, asosan, aktsiologik yondashuv yetakchilik qilganligini ko'rish mumkin. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, Cho'lpon ijodini xalqqa qaytarish oson kechgani yo'q. Uni millatchi, panturkist, xalq dushmani, deb ayblab kelgan qatag'onchi kuchlarning «merosxo'r»lari shoirga nisbatan ushbu nohaq tamg'alarni qattiq turib saqlab qolishga harakat qildilar. Lekin istiqlol arafalaridayoq yangicha fikrlashga moyil bo'lgan taraqqiyparvar ziyolilarimiz- ijodkorlaru adabiyotshunoslar, munaqqidlar Cho'lpon ijodini xalqqa qaytarish yo'lida jiddiy kurash olib bordilar va muayyan natijalarga erishdilar. Shu bois, 80-yillarning oxiridayoq Cho'lpon hayoti va ijodiy biografiyasiga, asarlariga bag'ishlangan maqolalar birin-ketin e'lon qilina boshladi. Bu davr tanqidchiligining muhim xizmatlaridan biri shundaki, adabiy tanqid qisqa vaqt ichida xalqda, keng kitobxonlar ommasida Cho'lpon haqida yangi tasavvurlarni uyg'otdi. Bunday muhim ishni munaqqidlar shoir zamondoshlarining xotiralarini, u haqida o'z davrida chiqqan maqolalarni, bahs-munozaralarni chop etish va ularga munosabat bildirish, Cho'lponning asarlaridan, maqolalaridan namunalar e'lon qilish, u haqdagi arxiv xujjatlarini va stenogrammalarni bosish orqali amalga oshirdi. Bu borada taniqli olimlar O.Sharafiddinov, N.Karimov, E.Karimov, Sh.Turdiyev, U.Normatov, B.Nazarov, A.Aliev, B.Do'stqoraevlar bilan bir qatorda

D.Quronov, B.Karimov, Z.Eshonova, N.Yo‘ldoshev, S.Ahmad kabi yosh adabiyotshunoslar ham faollik ko‘rsatdilar.

Jumladan, 80-yillar oxiridayoq «O‘zAS» haftaligida «Qayta qurish va madaniy meros» rukni ostida Cho‘lponning she‘rlaridan namunalar e‘lon qilindi . Cho‘lponning 1938 yil Yozuvchilar uyushmasida so‘zlagan nutqi «Nutq» sarlavhasi ostida ham chop etildi . Shuningdek, uning she‘rlari , «Kecha va kunduz» romani ham ba‘zi juz‘iy tahrirlar bilan e‘lon qilingani kitobxonlarning Cho‘lpon haqida tasavvurlari boyishiga xizmat qildi.

Bulardan tashqari, mustaqillikkacha bo‘lgan davrdayoq Cho‘lpon she‘rlari jamlangan «Bahorni sog‘inib» (nashrga tayyorlovchi-I.Haqqulov) to‘plamining chop etilgani ham uning ijodi haqida o‘quvchilarda muayyan tasavvurlarni shakllantirdi. Shuningdek, Cho‘lponga zamondosh bo‘lgan, uni ko‘rgan, bilgan kishilarning xotiralarini, maqolalarining topilib, e‘lon etilgani ham shoir hayoti va ijodi tadqiqotiga doir materiallarning to‘planishiga imkon tug‘dirdi.

Jumladan, «Yoshlik» jurnalida Cho‘lponga zamondosh bo‘lgan Laziz Azizzodaning «Cho‘lpon kim edi» maqolasi chop etildi. Maqolada shoirning dunyoqarashi, shaxsiyati, ijodi haqida fikr yuritiladi. Cho‘lponning rus, tatar, ozarbayjon, turk adabiyotidan bahramand bo‘lgani, rus va turk tillari orqali g‘arb adabiyotini o‘rgangani ijodiy kamolotiga katta ta‘sir qilgani aytiladi. Garchi maqolada Cho‘lpon ham oktyabr to‘ntarishidan keyin sho‘rolar siyosatiga xizmat qildi, degan fikrga urg‘u berilgan bo‘lsa-da, uning ayrim she‘rlari o‘sha davrda yo‘l qo‘yilgan kamchilikni fosh qilganiga e‘tibor qaratiladi. A. Lazizzodaning ushbu maqolasi Cho‘lpon haqida muxtasar ma‘lumot beruvchi dastlabki maqolalardan biri sifatida qimmatlidir.

Shuningdek, Abduaziz Xolmuhammedovning «Bukilgan bardosh», Q.Norxo‘jaevning «Men bilgan Cho‘lpon» maqolalarida ham Cho‘lpon haqidagi xotiralar bayon etilgan. A.Xolmuhammedov 1928-1930- yillar Samarqandda Cho‘lpon bilan qo‘shni yashagani, bir-birlariga samimiy munosabatda bo‘lishganini eslaydi: Cho‘lponning ilmi, aqli, mulohazali, boshqa millat vakillariga ham do‘stona munosabatda bo‘lgani aytiladi. Muallif o‘sha paytdayoq

Cho'lpon ijodi haqida matbuotda tanqidiy maqolalar bosilgani, uning she'riy to'plamlari nashriga ruxsat berilmaganini, har tomonlama ta'qibga uchragan shoir iqtisodiy tang holda yashagani haqida ma'lumot beradi. Q.Norxo'jaevning yodnomasida esa, 20-yillardagi adabiy muhitda Cho'lponning obro'- e'tibori haqida fikr yuritiladi. Xususan, Qodiriy, Fitrat kabi maktab darsliklariga Cho'lpon ijodidan ham kiritilgani aytiladi.

Bu davr matbuotini kuzatganda Cho'lpon hayoti va ijodi bilan keng xalq ommasini tanishtirish izchil davom etgani ko'rish mumkin. Jumladan, Sirojiddin Ahmad tomonidan nashrga tayyorlangan Zaki Validiy To'g'onning «Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon)» sarlavhali maqolasida Cho'lponni shoir sifatida birdan porlagan ulkan is'tedod sohibi ekanligi qayd etilgan. Zaki Validiy shoir dunyoqarashi haqida fikr yuritarkan, uning qozoq shoiri Mag'ajon bilan hamfikir, hammaslak ekanligini ta'kidlab shunday yozadi: «Cho'lpon mafkuraviy jihatdan Mag'ajonning o'zi kabidir. Bularning har ikkalasini adabiy faoliyatdan asl maqsadi turk milliy madaniyatining fikriy uyg'onishidir».

Muallif o'z fikrini Mag'ajon she'rlaridagi «kun» va «tun» obrazlarining Cho'lpon ijodida ham «Sharq va G'arb», «mazlum va zolim» tarzida kelishini ta'kidlaydi. Ushbu maqola va boshqa xotiralarning e'lon qilinishi keng kitobxon ommasini Cho'lpon shaxsi bilan, uning betakror ijodi bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Cho'lpon ijodi haqida taniqli adabiyotshunos olim va munaqqid N.Karimovning tadqiqotlari ham alohida salmoqqa ega. O'tgan asrning 20-30-yillariga doir manbalarni chuqur o'rgangan zahmatkash olim 80-yillarning oxiridayoq Cho'lpon biografiyasining tiklanishida, asarlari nashr etilishida, adib hayoti va ijodini yoritish, kontseptsiyasini belgilashda, poetik olamini talqin etishda juda katta xizmat qildi. U o'z tadqiqotlarida Cho'lponning ulkan iste'dod sohibi, buyuk shoirligidan tashqari, o'z millatini sevuvchi millatparvar, ko'ngli nozik, hissiyoti ummon qadar keng insonligini ham kashf eta oldi hamda XX asr o'zbek adabiyotini yangilashga o'zining munosib hissasini qo'shgan novator shoir va yozuvchi sifatidagi siymosini to'liq yarata oldi. Nazariy jihatdan,

N.Karimovning Cho‘lpon haqidagi ilmiy, ommabop, ma’rifiy asarlarini o‘rganar ekanmiz, olimning o‘zbek adabiy tanqidchiligi sho‘ro davriga xos sinfiylik hamda partiyaviylikka asoslangan metodologiyadan xalos bo‘lib, yangicha ilg‘or metodologik tamoyillarga ega bo‘la boshlashida o‘zining munosib hissasini qo‘shganini ko‘ramiz. Uning Cho‘lpon haqidagi ko‘plab xotiralarni to‘plagan, arxiv materiallari va davlat hujjatlarini o‘rganib, shular asosida adib hayoti va ijodiga doir turli janrlarda yozgan asarlari tanqid faoliyatining ko‘lami kengayib, boshqa sohalar bilan hamkorligi tobora ortib borayotganligidan dalolatdir. Bu adabiy tanqid metodologiyasining yangilanayotgan jihatlaridan biridir.

Istiqlol davrida cho‘lponshunoslikning yangi yo‘nalishlari tarkib topganini ham ta’kidlash joiz. Jumladan, mustaqillik yillarida Cho‘lpon va tanqid, Hamza va Cho‘lpon, Cho‘lpon va Fitrat, Gaspirinskiy va Cho‘lpon, Cho‘lpon va teatr, Cho‘lpon tarjimon, Cho‘lpon va matbuot kabi yo‘nalishlar bo‘yicha turli xil ilmiy axborotlar, maqolalar, xotiralar chop etildi. Ularda Cho‘lponning ijodkor va faol jamoatchi shaxs sifatidagi faoliyati tahlil etiladi. Bu tipdagi maqolalar adabiy tanqid doirasi kengayib, boshqa sohalar bilan aloqasi kuchaya boshlaganidan dalolat beradi. Ayni paytda, bu sa’y-harakatlar qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Ana shunday izlanishlar orasida, ayniqsa, «Gaspirinskiy va Cho‘lpon», «Cho‘lpon va Fitrat», «Cho‘lpon va Hamza» kabi mavzularidagi tadqiqotlar Cho‘lponning poetik mahoratini yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri tanqidchiligida Milliy uyg‘onish davri (Jadid) adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini har tomonlama tahlil va talqin etish yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. Adabiy tanqid Behbudiy, Avloniy, ayniqsa, Fitrat, Qodiriy va Cho‘lpon singari milliy uyg‘onish (jadid) adabiyoti namoyandalari ijodini o‘rganar ekan, asosiy e’tiborni quyidagi muhim masalalarga qaratdi.

2. FASL. MAMLAKATIMIZDA QODIRIY ADABIY MEROSINI TADQIQI VA UNGA MUNOSABAT.

Olimimizning o'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodi o'rganilishini bosqichlarga bo'lishi, ya'ni davrlashtirishi shartli xarakterga ega. Shu o'rinda ta'kidlash joizki Matyoqub Qo'shjonov qodiriyshunoslikni davrlashtirishda yillar va sanalarni emas, balki birinchi galda adib ijodini baholashdagi cheklanishlar, biryozlamaliklar va ularning mohiyatini ochib berish jarayonlarini nazarda tutgan. Munaqqid tilga olgan oltinchi bosqich, ya'ni istiqlol arafalari va istiqloldan keyingi davr mohiyat e'tibori bilan yetmish yildan ziyodroq vaqt mobaynida davom etgan qodiriyshunoslik zaminida paydo bo'lgan va ayni chog'da, o'sha paytda yo'l qo'yilgan kamchilik hamda nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qilingan, yangicha kontseptsiya, yangicha tanqid tafakkuriga asoslanilgan davrdir. Binobarin, bu davrda adabiy tanqid yetmish yil hukmronlik qilgan markscha-lenincha metodologiyadan voz kechish barobarida, adabiy jarayonga yangicha metodologik tamoyillar asosida yondasha boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu hol faqat Qodiriy asarlariga emas, balki umuman jadid adabiyoti namoyandalari ijodiga munosabatda o'z aksini topdi.

Shu bois, 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlaridayoq Qodiriy hayoti va ijodiga bog'liq haqiqatlarni to'la tiklash, asarlarini yangicha mezonlar, metodologik tamoyillar asosida qayta baholashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bunda adabiy tanqid jahon adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga xos ilg'or metodologik tamoyillarga tayandi, xorijda shakllangan qodiriyshunoslik, fitratshunoslik va cho'lponshunoslikning yetakchi kontseptsiyalarni o'rganish orqali e'tiborli jihatlarini ijodiy o'zlashtirish yo'lidan bordi. Adabiy tanqid bu adiblar ijodini baholashda, ayniqsa, Qodiriy asarlari tadqiqida muvofiqlik va to'ldiruvchanlik tamoyillarga tayandi. Bu xususiyat, ayniqsa sho'ro davri qodiriyshunosligiga ham o'z hissalarini qo'shib kelishgan M.Qo'shjonov, S.Mirvaliev, A.Aliev, U.Normatov singari munaqqidlar ijodiga xosdir. Natijada yozuvchi tarjimai holining shu paytgacha oshkor etilmagan qirralari yangi fakt va ma'lumotlar bilan to'ldirildi, ilgari ma'lum bo'lmagan faktlar, qo'lyozmalar,

hujjatlar, arxiv materiallari ilmiy muomilaga kiritilib, muayyan xulosalar chiqarildi. Ilgari o'rganilmagan manba va talqinlar qayta tahlildan o'tkazildi. Shunday ishlardan biri Abdulla Qodiriyning farzandi Habibulla Qodiriyning «Qodiriyning so'nggi kunlari» nomli xotira qissasidir. Ma'lumki, H. Qodiriy 70-yillarda «Otam haqida» nomli xotira qissasini e'lon qilib, unda Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida dastlabki ma'lumotlarini bayon etgan edi. Mazkur xotira sho'ro davrida yozilgani bois, unda adib haqida emin-erkin fikr aytish imkoniyati yo'q edi. 80-yillarning oxiriga kelib ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bera boshlagan o'zgarishlar tufayli bir qadar erkinroq fikrlash sharoiti tug'ildi va yangi faktlar, kuzatishlar, izlanishlar orqali A. Qodiriy to'g'risida ochig'roq yozishga imkoniyat paydo bo'ldi. Darhaqiqat, «Qodiriyning so'nggi kunlari» xotira qissasida ulug' adib hayoti, ijodiy laboratoriyasining ayrim qirralari o'z aksini topdi. CHunonchi, xotiraning «Xitoy konsuli» bobida adib romanlarining faqat O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar orasida emas, balki Sharqiy Turkistonda ham keng yoyilgani ta'kidlanadi. Boshqa tarafdin o'sha davrda siyosiylashgan sho'ro idoralarining tazyiqini ham ko'rsatuvchi hujjatdir. Darvoqe, A. Qodiriyning Amir Umarxonning kanizi haqida roman yozish niyati bo'lganiga oid ma'lumot ayni shu jihatdan xarakterlidir. Adib niyati va bu mavzuga doir ma'lumotlar to'plagani boshqa adabiyotshunoslarning kuzatishlaridan ham uchraydi. Jumladan, «SHarq yulduzi» jurnalida bosilgan «Abdulla Qodiriy va tarixchi Hakimxon» sarlavhali maqolada «Amir Umarxonning kanizi» nomli romanga materiallar to'plash chog'ida tarixchi Muhammad Xakimxon to'raning «Muntahab at tavorix» nomli tarixiy kitobi muhim manba sifatida yozuvchining e'tiborini tortgani ta'kidlanadi. Bu ma'lumot Qodiriyning navbatdagi tarixiy romanlar turkumini davom ettirish niyati jiddiy bo'lganidan dalolat beradi.

Keyingi davr tanqidchiligida adabiy hodisalarga tarixiy-biografik yondashuvning kuchaygani yangicha adabiy tanqid metodologiyasining muhim tamoyillaridan biri shakllanayotganidan dalolat beradi. Zero, ijodkor hayoti va asarlariga doir manbalarni aniqlashda bu tamoyil muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr tanqidchiligi faoliyatida Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, biografiyasiga

taalluqli, biroq yashirib kelingan, yoritilmagan ma'lumotlarga e'tibor qaratilganiga guvoh bo'lamiz. Chunonchi, ularning qanaqa ayblovlar bilan qachon, qanday vaziyatda qamoqqa olingani, tergov jarayonida ularga qanday ayblar qo'yilgani, kimlar bilan yuzlashtirilgani, qaysi «gunohlari» uchun otilganliklari oydinlashdiki, bu ular biografiyasining ochilmagan tomonlari edi. Shu bois, adabiy tanqid 80-yillar oxiri 90-yillarning boshlaridayoq arxiv materiallari asosida sir tutib kelingan muammolarga oydinlik kiritdi.

Bu borada keng o'quvchilar ommasiga oshkor etilgan materiallarni yangicha nuqtai nazar va yangicha kontsepsiya bilan tadqiq hamda tahlil etishga harakat qilingani muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, ayniqsa, Naim Karimov, Islom Usmonov, Hamidulla Boltaboev, Shuhrat Rizaev singari munaqqidlarning kuzatishlari xarakterlidir.

Naim Karimovning «O'zbek ziyolilarining jallodlari» turkumi sirasidan «Qodiriy boshi-yangi yil sovg'asi», «Cho'lpon uchun kishan», Islom Usmonovning «Qodiriy qaerda otilgan?» maqolalari, Majid Hasanovning «Vatan mening sajdagohim» sarlavhasi bilan e'lon qilingan Fitratning hayoti va ijodi haqidagin suhbatida atoqli adiblar hayotining eng qayg'uli, fojeali vaziyatlariga oid ma'lumotlar berilgan. Xususan, Naim Karimovning maqolalarida Qodiriy va Cho'lpon hayotining xalqdan sir saqlangan sahifalari yoritilgan. Qodiriyning qamoqqa olinishi va sho'ro xavfsizlik xizmati boshlig'i Apresyan va uning gumashtalari Agabekov, Trig'ulov kabilarning Qodiriy, Cho'lpon va Fitrat taqdirida o'ynagan mash'um rollari ishonchli tahlillar bilan ko'rsatilgan. Binobarin, qatag'on qurbonlari bo'lgan bu adiblar qismatini yoritishda ushbu maqolalarning ahamiyati juda katta bo'ldi. Boshqa tarafdin endigina istiqloлга erishgan xalqimiz o'sha paytda bu faktlardan voqif bo'lib, hurriyatga erishganimiz tasodifiy emasligini, balki Vatan ozodligi yo'lida fidoyi ziyolilarimiz o'z jonlarini qurbon qilishganini, mustaqillik og'ir va mashaqqatli kurashlar evaziga qo'lga kiritilganini dalillovchi manbalar bilan tanishishga muyassar bo'ldi.

Shubhasiz, bu davr tanqidchiligida, avvalo, ijodkorlarning poetik olami, badiiy mahoratini kashf qilish, asarlarini yangicha mezon va metodologik

tamoyillar asosida tahlil hamda talqin etish yetakchilik qiladi. Bu borada, ayniqsa, Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon ijodlariga munosabat xarakterlidir. Aslida, sho‘ro davri tanqidchiligida ham Qodiriy ijodiy olamini yoritishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgandi. Ushbu mavzudagi maqola va bahs-munozaralarda asosiy e’tibor yozuvchi dunyoqarashi, mafkurasi, metodi va nihoyat mahorati masalasiga qaratilardi. Biroq ularda markscha-lenincha metodologiya ustuvorlik qilgani uchun, garchi Qodiriy ulkan iste’dod sohibi sifatida etirof etilgan bo‘lsa-da, hukmron mafkura talablaridan kelib chiqib, uning ijodidagi cheklanganliklar alohida uqtirilar edi. Qodiriyshunos olim Bahodir Karimovning «XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi» (Qodiriyshunoslik misolida) mavzusidagi doktorlik ishi va shu ilmiy tadqiqot asos bo‘lgan «Abdulla Qodiriy» nomli monografiyasida adib ijodining o‘zbek va xorij adabiyotshunosligi hamda tanqidchiligida qanday talqin etilganligi har tomonlama ochib berilgan. Tadqiqotchi to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida, umuman, sobiq ittifoqdagi millatlar adabiyotshunosligida badiiy asar talqini ko‘pincha davr siyosatiga muvofiq bo‘lganligi ko‘rinadi. Shu ma’noda, adabiyot va siyosat juftligi filologiya ilmida har vaqt yonma-yon keldi».

Binobarin, istiqlol davriga kelib, Qodiriy ijodini tahlil qilishda qanday metodologik tamoyillarga tayanila boshlandi, adib ijodiy mahoratining qaysi qirralariga e’tibor qaratildi, degan masala juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan keyingi yillarda chop etilgan maqolalar, tadqiqotlar va bahs - munozaralarni ko‘zdan kechirsak, ularda yozuvchi biografiyasining yangi qirralarini ochishdan tashqari, adib poetik olamining talqinida ham yangicha mezonlarga qo‘l urilganligini kuzatamiz. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, istiqlol davri tanqidchiligida Qodiriy ijodiy mahoratiga bag‘ishlangan bir qancha maqola, tadqiqot yuzaga keldi. Ularning ayrimlari monografik xarakterda bo‘lib, yozuvchi hayoti va ijodini yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ocherklar va monografiyalar bo‘lsa, ayrimlari ijodkor poetik olamining muayyan qirralarini yoritgan tadqiqotlardir. Jumladan, M. Qo‘shjonovning «O‘zbekning o‘zligi», I.G‘anievning «Ruhiiy go‘zallikning qismati», A.Murodxonovning «Iste’dod

jozibasi», Gʻ.Lutfiddinovaning «Gullarning raʼnosi», «Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi», B.Karimning «Qodiriy qadri», «Abdulla Qodiriy», «Adabiyot badiiyat abadiyat» kabi asarlarda adib poetik olami tadqiq etilsa, U. Normatovning «Qodiriy bogʻi», A.Alievning «Istiqlol va adabiy meros» kitobidagi «Abdulla Qodiriy» ocherki, S.Mirvalievning «Abdulla .Qodiriy» kabi tadqiqotlarida uning hayoti va ijodi batafsil yoritilgan. Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, istiqlol yillarida Qodiriy ijodini yangicha tafakkur tarzi, yangicha metodologik tamoyillar asosida talqin etish shoʻro davri qodiriyshunosligi shakllanishiga katta hissa qoʻshgan atoqli munaqqidlar faoliyatiga ham xos xususiyatdir. Ular mustaqillikning ilk yillaridayoq oʻz dunyoqarashlarini qayta qura olgan, avvalgi ayrim mafkuraviy qarashlaridan voz kecha olgan olimlardir. Ularning tadqiqotlarida shoʻro davridagi Qodiriyshunoslikka xos siyosiy-mafkuraviy yondashuvdan batamom voz kechishga intilishni ham, yozuvchi poetik olamini badiiylik, milliy oʻzlikni anglash va qadriyatlar, xalq va vatan manfaatlari bilan bogʻliq holda yondashishga urinishni ham kuzatish mumkin. Bu esa, istiqlol davri Qodiriyshunosligi kontseptsiyasining yetakchi xususiyatlaridandir. M. Qoʻshjonov, A.Aliev, S.Mirvaliev, U. Normatov, B. Karimov, I.Gʻaniev va boshqa munaqqidlarning kuzatishlarida shu xususiyat singdirilganligiga amin boʻlamiz. Albatta, Qodiriy shaxsi va ijodiga tahliliga doir tadqiqot va maqolalarni toʻla-toʻkis analiz qilish bizning vazifamizga kirmaydi. Qolaversa, B.Karimov tadqiqotlarida bu masala mufassal tadqiq etilgan. Biz bu oʻrinda istiqlol davri tanqidchiligida qodiriyshunoslik qaysi metodologik tamoyillarga koʻra rivojlandi degan masalaga koʻproq eʼtiborni qaratdik. Taʼkidlash joizki, istiqlol davrida qodiriyshunoslik, fitratshunoslik va choʻlponshunoslikning mukammal namunalarida, shoʻro davridagidan farqli ravishda, ijtimoiy tahlilga emas, balki estetik talqinga koʻproq eʼtibor qaratdi. Ular ijodiga yondashishda badiiy-estetik qonuniyatlarga tayanish yetakchilik qila boshladi. Muayyan asarda ijodkorning mahorati, avvalo, ruhiyat tasvirlari qay darajada haqqoniy aks etgan, degan masala ustuvorlik qildi.

Taʼkidlash zarurki, adabiy tanqidning milliy uygʻonish davri adabiyoti namoyandalari ijodiga bagʻishlangan kuzatishlarida aksiologik yondashuv

yetakchilik qila boshladi. Ya'ni bu ijodkorlarning ijodiy merosini milliy qadriyatlarimizning go'zal namunalari sifatida e'zozlash, asrab-avaylab xalqqa yetkazish ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, M.Qo'shjonovning «O'zbekning o'zligi» kitobi ana shu xususiyati bilan qimmatlidir. Unda Qodiriy romanlari ezgu qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar va milliy ruhiyat nuqtai nazaridan talqin etiladi. Munaqqidning yutug'i shundki, u asar qahramonlari Otabek va Kumush qalbida kechgan tug'yonlarni, ruhiy holatlarni roman syujeti va kompozitsiyasidan ajratmay, yaxlit holda tahlil qilishga erisha olgan. Yetakchi qahramonlar qalb kechinmalarining ishonarli tahlillarida munaqqidning yozuvchi mahoratini izchil kashf etib borganiga guvoh bo'lamiz. Kitobda estetik tahlil ustuvor, biroq ijtimoiy talqin ham e'tibordan soqit etilmagan. Jumladan, asarning g'oyaviy motivini ochishda, Otabek dunyoqarashining yetakchi xususiyatlarini ta'kidlashda, romanga singdirilgan millat, vatan taqdiri bilan bog'liq kotseptsyani dalillashda munaqqid ijtimoiy talqinga urg'u bergan. Bu tabiiy hol albatta. Chunki badiiy asar talqini «sof estetik tahlil»dan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Badiiy asarda, ayniqsa, nasriy asarlarda, xususan, yirik janr hisoblanmish romanda qahramon bevosita tashqi muhit, ijtimoiy borliq bilan muayyan tarzda munosabatga kirishadi. Demakki, asar tahlilida munaqqid ham ijtimoiy hayot haqida fikrlashga burchli. Biroq ijtimoiy talqin ilmiy tahlilning o'zagiga aylanmagan, M. Qo'shjonovning «O'zbekning o'zligi» asari Qodiriy ijodiga milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashishning go'zal namunalaridan biridir. Munaqqid talqinida yozuvchining poetik mahorati har tomonlama dalillab ko'rsatilganini ta'kidlash zarur. Ayni chog'da, romanga sho'ro davriga xos mafkuraviy mezonlar bilan yondashilgan o'rinlar ham uchraydi. Bu, ayniqsa, Otabek bilan Kumushning fojeasiga sabab bo'lgan omillarni belgilashda ko'zga tashlanadi. Munaqqid Otabek bilan Kumush fojeasiga zulmkor ijtimoiy muhit, eski urf-odatlar, ota-ona orzusi kabilarni asosiy sabab sifatida ko'rsatadi. Vaholanki, Otabek bilan Kumush fojeasining sabablarini faqat tashqi muhitdan axtarish unchalik to'g'ri emas. Aslida, bular ikkinchi, uchinchi darajali sabablardir. Roman qahramonlari fojeasining bosh omili esa, Otabek bilan Kumushning qalbi, ruhiyati, ma'naviy olamining o'ziga xosligidadir.

Zero, Otabek va Kumushning qalblari shunday javohirki, unda Zaynablarga o‘rin yo‘q. Tasavvur qilaylik, Otabek ham o‘z zamonasining farzandi. O‘sha zamonda savdogarlar yurtlarni kezib yurishgan. Otabekka o‘xshagan savdo ahli nafaqat Marg‘ilon yoxud Qo‘qon, balki Rossiya, Sharqiy Turkiston, qolaversa, Afg‘oniston, Eron, arab davlatlarida tijorat bilan mashg‘ul bo‘lishib, bir ketishda oylab, yillab, hatto o‘zga ellarda o‘n yillab yurishgan. (A. Fitratning otasi Qashqarda 15 yil turgani haqidagi faktni eslang -Q.Q.) Demak, o‘sha davr hayoti savdogar ahlining, islom aqidalariga ko‘ra, boshqa yurt shaharlarida ham oilali bo‘lishlarini taqazo etgan. Bu hol tabiiy bo‘lib, Otabek va Kumushning zamondoshlarini hech bir qiynoqqa solmagan. Shu nuqtai nazardan, Otabekning Toshkentda Zaynabga uylantirilishi an‘ana va urf-odatlariga xos hol bo‘lib, bunda na «majburiyat», na «zulmkor muhit» va na «ota-ona orzusi»ning aybi bor. Fojianing sababi esa Otabek bilan Kumush qalblarining sevgi bilan limmolimligiki, ular o‘z zamonasining tartib-qoidolari, tamoyillarini singdira olishmadi. Binobarin, Otabek bilan Kumush fojeasi haqida fikr yuritganda asosiy e‘tiborni ular qalbining o‘ziga xosligiga qaratish lozim bo‘ladi.

U.Normatovning «Qodiriy bog‘i» nomli kitobida yozuvchining «Kalvak mahzum...» va «Toshpo‘lat tajang...» hajviyalari davr va shaxs kontseptsiyasi nuqtai nazaridan talqin etiladi. Munaqqid talqiniga ko‘ra, adib Kalvak Mahzum va Toshpo‘lat Tajang obrazlari orqali faqat mutaassib ruhoniy yoki chapani obrazlarini yaratish bilan cheklanmagan, ayni chog‘da, bu xarakterlar vositasida davrning fojeali jihatlarini ham yoritib bergan. Kitobda U.Normatov Kalvak Mahzum va Toshpo‘lat Tajangning o‘ziga xos insoniy qiyofasi yaratilganligini, garchi bu obrazlar hajviy xarakter kasb etgan bo‘lsa-da, nuqul qora bo‘yoqlar bilan chaplangan sxematik xarakterlar emas, balki hayotiy, haqqoniy qahramon darajasiga ko‘tarilgan obrazlar ekanini asoslab beradi.

Adabiyotshunos B.Karim ham «Qodiriy qadri» nomli kitobidagi «Kim nimadan kuladir» («Xotira daftar»ini varaqlaganda) maqolasida U. Normatov fikrlarini mantiqan davom ettirib, Kalvak Mahzum obrazi orqali Qodiriyning davr illatlarini hajviy yo‘sinda asosli, ishonarli fosh etganini poetik mahorat nuqtai

nazaridan talqin etadi. Ta'kidlash joizki, Qodiriy hajviyotiga doir bu talqinlar, fikrlar adabiy tanqid tafakkuridagi evrilishlar, yangicha mezonlarni o'ziga dasturilamal qilib olayotgan metodologik tamoyillarning ilk namunalaridir. U.Normatov «Qodiriy bog'i» kitobida adib ijodining mohiyatini –ijtimoiy, badiiy-estetik kontseptsiyasini tarixiylik tamoyillari asosida yoritishga, asarlariga estetik printsiplardan kelib chiqib yondashishga harakat qiladi. Xususan, Qodiriyning 20-yillardagi ijodining bir yo'nalishi-jurnalistik faoliyatini tahlil qilarkan, uning oktyabr inqilobini quvonch bilan kutib olganligini va unga sidqidildan xizmat qilganini maqolalari tahlili orqali ta'kidlaydi.

«Abdulla Qodiriy Oktyabr inqilobini shu tarzda kutib oldi, undagi sotsializmga, bolsheviklarga, Lenin ishiga e'tiqod shu tariqa shakllandi, sovet hokimiyatining dastlabki paytlaridanoq sidqidildan uning xizmatida bo'ldi». Munaqqid bu fikrlarini Qodiriyning tarjimai holiga tayanib, uning «Ro'sta», «Ishtirokuyun», «Qizil bayroq», «Inqilob», «Kommunist» va ayniqsa, «Mushtum» jurnalidagi faoliyati davomida e'lon etgan maqolalari asosida dalillashga urinadi. Jumladan, kitobdagi yozuvchining xurofatga qarshi yozilgan maqolalari tahlili shu jihatdan xarakterlidir.

Biroq ta'kidlash joizki, «Qodiriy bog'i» risolasida munaqqidning o'zini-o'zi inkor etgan o'rinlar ham bor. Xususan, 20-yillarning birinchi choragida yaratilgan «O'tgan kunlar»ning estetik printsiplariga doir kuzatishlarida U.Normatov bu roman sho'ro davri fojealarini fosh etuvchi, milliy mustaqillik g'oyalarini ifodalovchi asar ekanligini ta'kidlab, Yusufbek Hojining o'g'li Otabekka qarata aytgan xitobnomasidan kattagina ko'chirma keltirib, o'z fikrini asoslashga harakat qiladi . Munaqqid hatto risolasining mazkur bobini «Istiqlol qayg'usi» deb nomlaydi. U «Mehrobdan chayon» romanini ham xuddi shu nuqtai nazaridan talqin etadi. Ushbu talqinlardan go'yo yozuvchi bir vaqtning o'zida ham inqilobni olqishlagan, unga xizmat qilgan (maqolalari bilan), ham istiqlol uchun kurash olib borgan (romanlari bilan), degan xulosa kelib chiqadi. Albatta, masalaga bunday yondashish metodologik jihatdan o'zini oqlamaydi. Nazarimizda, munaqqid ushbu kuzatishlarida davr va yozuvchi dunyoqarashidagi ziddiyatli jihatlarga urg'u

berganida maqsadga muvofiq bo'lar edi. U.Normatov risolasining xotimasi- «Fig'on» deb nomlanuvchi bobida Xabibulla Qodiriyning «Qodiriyning so'nggi kunlari» xotira-qissasi va u haqda aytilgan fikr-mulohazalarga munosabat bildirgan. Jumladan, xotira qissaga kiritilgan arxiv hujjatlarida nomlari zikr etilgan ko'plab taniqli ijodkorlarni obro'sizlantiruvchi fikrlarga e'tiroz bildirgan ayrim munaqqidlar bilan munozaraga kirishadi. Provvardida munaqqid barcha tarixiy faktlarni ochiq-oydin, xolis, oshkoralik bilan baholash payti keldi, shu bois, turli xil mulohazalardan cho'chimasdan bunday faktlarni e'lon qilish zarur, deb hisoblaydi.

Muallifning xolislikka, oshkoralikka chorlaganini qo'llab quvvatlagan holda, xotira-qissadagi ko'pgina mulohazalar subektiv qarashlar natijasi ekanligi haqidagi A. Rasulov fikrlari asosli ekanligini ta'kidlash zarur. Chunonchi, H.Olimjon va Zulfiyaning to'yi munosabati bilan ota-bola o'rtasidagi muloqat, xususan, Abdulla Qodiriyning aytgan gaplari nafaqat H.Olimjon va Zulfiya siymosiga, balki Qodiriydek buyuk adib siymosiga ham soya soladi. Zulfiya esa H.Olimjon vafotidan keyin sevgi va sadoqat timsoli sifatida xalqimiz qalbiga muhrlanib qoldi. Buning zamirida qandaydir targ'ibotlar emas, balki Zulfiyaning o'zbek xalqi ko'z o'ngida bosib o'tgan hayot va ijod yo'li, umrining mazmun-mohiyati yotibdi. Shu bois, uning siymosiga soya tashlashga hech kimning ma'naviy haqqi yo'q. «Qodiriyning so'nggi kunlari» qissasida aks etgan davr fojealari, buyuk yozuvchining achchiq qismati va sargardon kezgan o'g'ilning fojeali obrazi qodiriyshunoslikning kemptik joylarini to'ldirishga xizmat qilsa-da, yuqorda ko'rsatilganidek, unda o'rinsiz ta'kid va talqinlar ham uchrashini inkor etib bo'lmaydi. Xullas, ayrim e'tirozli o'rinlariga qaramay, hozirjavob munaqqid U. Normatovning «Qodiriy bog'i» kitobi yangicha metodologik tamoyillar asosida qodiriyshunoslikda yangi qarashlarni o'zida aks ettirgan, yangicha tanqid tafakkurining namunasi sifatida maydonga kelgan tadqiqotlardan biridir. SHo'ro davri qodiriyshunosligiga munosib hissa qo'shgan olimlardan yana biri Ahmad Alievdir. U ham, boshqa qodiriyshunoslar singari, sho'ro davrida Qodiriy ijodini baholashda muayyan cheklanishlarga yo'l qo'yilganini e'tirof etib, istiqlol

davrida Qodiriy hayoti va ijodi haqida yangicha kontseptsiya va yangicha nuqtai nazarga asoslangan maqolalar chop ettirdi. Shuningdek, «Istiqlol va adabiy meros» «Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat» nomli kitoblarida Qodiriy hayoti va ijodi haqida ham fikr yuritiladi.

Muallif bir o'rinda Qodiriy ijodini o'rganishga 50-yillarning o'rtalaridan kirishganini, 50-yillarning oxirlaridan maqolalar chop ettira boshlaganini va 1967 yili «Abdulla Qodiriy» nomli adabiy-tanqidiy ocherkini nashr qildirganini aytarkan, jumladan, bir masalaga e'tiborni qaratadi. Olim garchi o'sha davrda ham Qodiriy ijodi haqida iliq fikrlar aytgan bo'lsa-da, zamona zayli bilan tanqidiy mulohazalarni ham aytishga majbur bo'lganini, bunga sho'ro mafkurasi va milliy uyg'onish davri adiblar ijodi targ'ibotiga qarshi turgan kuchlarning tazyiqi sabab bo'lganini ta'kidlab, mustaqillikdan keyin yangicha qarashlar uchun keng imkoniyat yaratilganligini mamnuniyat bilan e'tirof etadi va o'zining chop etilgan maqolalarida yangicha qarashlarni ilgari surganligini aytadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib munaqqidning «Istiqlol va adabiy meros» nomli qo'llanmasiga nazar tashlasak, unda Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Behbudiy, G'ozii Yunus, Elbek, Botu kabi ijodkorlar asarlari yangicha tamoyillar asosida baholanganiga guvoh bo'lamiz.

A. Aliev har ikkala kitobida ham A. Qodiriy ijodiga yuksak baho beradi, uning XX asr o'zbek adabiyotida realistik romanchilikni boshlab berganini ta'kidlaydi. Adib ijodini tahlil va talqin etishda munaqqid uning adabiy-estetik qarashlaridagi yetakchi tamoyillarga, hayotiylik, xaqqoniylik, milliylik tildan foydalanish mahorati singari mezonlarga urg'u beradi. Biroq ayni damda U. Normatov kabi Qodiriy oktyabr inqilobini to'g'ri qabul qildi va 20-yillari ijodi bilan sho'ro davriga xizmat qildi, degan fikrni ilgari suradi: «U oktyabr inqilobi g'alabalariga ishondi va uni har tomonlama himoya qilish va saqlab qolishda qatnashdi.

A.Qodiriy sira ikkilanmay butun ongli hayotini, ijodiy faoliyatini, talanti, qobiliyatini barcha qiyinchiliklarga chidagan holda yangi davr adabiyotini, yangi davr madaniyatini yaratishga bag'ishlagan eng ilg'or, eng yetuk ziyolilarimizdan

edi» (60-bet). Ushbu fikrdan kelib chiqadigan xulosa shuki, demak, Qodiriy oktyabr to'ntarishidan keyingi davr adabiyotini yaratishga xizmat qilgan ijodkorlardan biri. Darvoqe, A. Aliev ham U. Normatov singari «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romani tahlilida bu asarlarning yetakchi kontsepsiyasi istiqlol g'oyalarini ilgari surganida, deb hisoblaydi. Jumladan, munaqqid «Ma'naviyat, qadriyat, badiiyat» nomli kitobida Otabek va Yusufbek hoji obrazlariga to'xtalib, shunday deb yozadi: «Otabek, Yusufbek hojilar umr bo'yi vatan deb uning ravnaqiga to'siq bo'ladigan yovuzlarga qarshi ayovsiz kurash olib boradilar, shu yuksak qiyofalari bilan sofdil kitobxonni ergashtiradilar... Ularning butun xatti-harakatlari milliy istiqlolga borib taqalaveradi...».

Ushbu mulohazadan ayon bo'layotirki, munaqqid talqinida A. Qodiriy bir vaqtning o'zida oktyabr inqilobi g'oyalarini qabul qilgan, unga sidqidildan xizmat qilgan va o'sha paytda yaratgan romanlarida esa sho'ro siyosatiga qarshi kurash olib borib istiqlol g'oyalarini ilgari surgan. Bir qator qodiriyshunoslarning so'nggi davrda yaratgan tadqiqotlarida mana shu ikki xil, qarama-qarshi fikrlarning mavjudligi adabiy tanqid metodologiyasi tamoyillarining, yangicha tanqid tafakkurining yuzaga kelishidagi murakkabliklardan, ziddiyatlardan dalolat beradi, tanqidning o'zini qayta qurishi osonlik bilan yuzaga kelmaydigan jarayon ekanini ko'rsatadi.

A. Qodiriyning hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan S. Mirvalievning «Abdulla Qodiriy» nomli monografiyasi ham qodiriyshunoslikdagi e'tiborli ishlardan bo'ldi.

Ma'lumki, S. Mirvaliev 60-yillarda chop etilgan «O'zbek romani» nomli kitobida ham Qodiriy romanlarini ancha keng tahlil qilgan edi. Bu kitobda ham o'sha davr adabiyotshunosligiga xos bo'lgan ayrim cheklanganliklar ko'zga tashlanadi. Jumladan, muallif «O'tgan kunlar» romanida yozuvchi mehnatkash xalq vakillarini yetakchi qahramon qilib olmaganini, tarixni sinfiylik printsplari asosida yoritmaginini, o'tmishni ideallashtirganini aytadi.

«Abdulla Qodiriy» monografiyasida muallif sho'ro davridagi kamchiliklar haqida fikr yuritib, adabiyotshunoslikda badiiy asarga siyosiy-mafkuraviy yo'sinda

yondashish yetakchilik qilganini ta’kidlaydi va istiqlol davriga kelib bu salbiy oqibatlar barham topganligini, badiiy asarga xolis yondashish imkoniyati paydo bo’lganligini, binobarin, adib ijodiga ob’ektiv baho berish niyatida ekanini ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, ushbu tadqiqotda u sho’ro davri adabiyotshunosligiga xos bo’lgan qarashlar «jangi»ni chetlab o’tilgan, matnni tushunib talqin qilishga harakat qilgan. Bir necha bobdan tashkil topgan ushbu monografiyada Qodiriyning oilaviy shajarasi, avlodlari, ijodga kirib kelish vaqtidagi shart-sharoit, ijodining ilk namunalari- she’lari tahlili, hajviy asarlarida kulgi yaratish mahorati muxtasar tahlil etiladi. Muallif yozgan ma’lumotlarning aksariyati kitobxonga ma’lum bo’lsa-da, Abdulla Qodiriy she’rlarning davr bilan hamohangligi, jadidchilik harakati bilan uyg’unligi mazkur ishning originalligini ta’minlagan. Qolaversa, adibning nasriy asarlaridagi, jumladan, romanlaridagi she’rlarning tahlili alohida ahamiyatga molik. Munaqqid bu she’rlarni mumtoz adabiyot an’analari bilan qiyoslab, ijodkorning poetik mahoratini kashf qilishga intilganki, bu ham tadqiqotning yutuqlaridandir.

S. Mirvaliev kitobida Qodiriyning romanlari tahliliga keng o’rin ajratilgan. Xususan, U «O’tgan kunlar» romanining mazmun –mohiyatiga to’xtalib: «Binobarin, «O’tgan kunlar» epik janr turiga ko’ra ham ijtimoiy-tarixiy, ham ishqiy romandir» , -deb asarning ijtimoiy-tarixiy va badiiy –estetik qimmatiga birday baho beradi. Demak, munaqqid talqinida ijtimoiy tahlil ham, badiiy tahlilga ham e’tibor qaratilganini ko’rishimiz mumkin.

Romanning g’oyaviy motivini tarixiylik va ijtimoiylik mezonlari asosida tahlil qilarkan, S. Mirvaliev asarning ijtimoiy mazmunini belgilaydigan g’oya-milliy istiqlol uchun kurashning yetila boshlaganligini ko’rsatishdan iboratdir, degan xulosani beradi.

Chunonchi, tadqiqotdagi tahlil, obrazlar tasnifi, qahramonlar nutqidan keltirilgan parchalar- barchasi shu fikrni asoslashga xizmat qildirilgan. Romanning badiiy -estetik qimmatini belgilashda munaqqid masalaga original yondashgan.. Bunda unga asar matni asosiy manba bo’lib xizmat qilgan.

Tadqiqotchi romandagi alohida tasvirlar, iboralar, manzaralarning o'ziga xosligini ta'kidlash orqali ramziy mazmunni ochishga uringaniga guvohi bo'lamiz. Xususan, romanning «...1264 hijriya...» deb boshlanuvchi ilk jumlasini bilan asar xotimasidagi jumalarning qiyoslash, Otabekning «Boburnoma» kitobini o'qishi, Kumush ko'z yorayotganda Otabekni tushida ko'rishi kabi detallar, holatlar singdirilgan ramziy mazmunni ochishga harakat qilgan. Darhaqiqat, bu borada muallif keyingi davr tanqidchiligida «O'tgan kunlar» romanining yangicha talqinini berishga urinayotgan munaqqidlar bilan hamqadamdir.

Munaqqid «Mehrobdan chayon» va «Obid ketmon» asarlarini ham ana shu mezonlar asosida talqin etadi. Kitobning yana bir qimmatli jihati Qodiriy hayoti va ijodiga oid muhim sanalar, Qodiriy shajarasi, adibning qizi Adiba Abdullaevaning maktubi qo'lyozmasi va Qodiriy qatl etilgan joy xaritasining chop etilganda, kitobxonlarga yozuvchi hayoti va ijodi haqida to'liqroq ma'lumot olish imkoniyati yaratilganida.

Istiqlol davri qodiriyshunosligiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan yosh adabiyotshunoslardan biri Bahodir Karimov so'nggi o'n yil mobaynida mazkur mavzuga bag'ishlab bir necha maqola e'lon qildi, risolalar chop ettirdi. «XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi» (Qodiriyshunoslik misolida, 2002 yil) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi esa, o'zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo'lib Qodiriyshunoslik tarixini yaxlit yangicha metodologik tamoyillar asosida tahlil va talqin etdi. B.Karimovning bu sohaga qo'shgan muhim hissasi shundaki, u so'nggi davr tanqidchiligida yuzagaga kela boshlagan yangicha metodologik yondashuv–germinevtikaning o'zbek adabiyotshunoslari faoliyatidagi o'rnini, mavjudlik darajasini ilmiy tavsiflab berdi. Uning bu ishi yanigilanayotgan adabiy tanqid metodologik tamoyillarining muhim yo'nalishlarini belgilashga xizmat qildi. B. Karimovning Qodiriy asarlari talqiniga bag'ishlangan maqolalariga xos eng muhim xususiyatlardan biri yangicha talqin tafakkurini o'zida mujassamlashtirganligida. Badiiy matnni yangicha tushunish va yangicha talqin etish uning kuzatishlariga xos xususiyatlaridan biridir. «Qodiriy qadri» (2003) nomli risolasiga jamlangan maqolalarida ayni shu xususiyat ustuvor.

Boshqa adabiyotshunoslardan farqli ravishda B.Karimov yozuvchi X.Sultonov va adabiyotshunos M. Qarshiboev singari «O'tgan kunlar» romanini, avvalo, sevgi-muhabbat mavzusida bitilgan asar, deb qaraydi hamda Otabek va Kumush muhabbati fojealarini-taqdiri azal tushunchasi bilan bog'lab tahlil qiladi. Munaqqid «O'tgan kunlar» romani matnidagi qodiriyshunoslar ko'pdan e'tibor bermagan «taqdir» tushunchasi bilan bog'liq voqelik va ruhiyat qirralarini asardan keltirilgan ko'plab misollar vositasida dalillaydi.

B.Karimovning ushbu risolaga kirgan va matbuotda e'lon qilingan maqolalarini Qodiriy ijodiga ontologik yondashuvning o'ziga xos namunalari sifatida baholash mumkin. Munaqqid asardagi matnni tutib turuvchi eng xarakterli nuqtalarini topib, olam va odam bir butunligini «taqdir hukmi» tushunchasining mohiyatiga joylay olgan.

B.Karimov bizda kam o'rganilgan xorijiy qodiriyshunoslik muammolariga alohida z'tibor qaratgan. U o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab yaqin yillargacha xorijiy qodiriyshunoslikda yaratilgan maqola va tadqiqotlar mazmunini, mohiyatini, kontseptsiyasini, tadqiq yo'nalishlarini umumiy tarzda bo'lsada sharxlab bergan.

Munaqqidning kuzatishicha, 30-40 yillardayoq Parijda chop etilgan «Yosh turkiston», Berlinda nashr qilingan «Milliy adabiyot», «Milliy Turkiston» kabi jurnal va to'plamlarda bosilgan Isroiljon, Boymirza Hayit singarilarning maqolalarida Qodiriy ijodi tahlilga tortilgan. Amerikalik olim Eduvard Olivord «O'zbek adabiy siyosati», olmon adabiyotshunosi Niota Tun, Eden Nabi, Maykel Murfe kabi tadqiqotchilarning turli davrlarda Qodiriy ijodiga turlicha qarashlarini ifodalagan maqolalari ushbu mavzuga bag'ishlangan o'zbek adabiyotshunoslari tadqiqotlari bilan qiyoslanib o'rganiladi, xorijiy qodiriyshunoslikning o'zbek adabiyotshunosligi bilan mushtarak va o'ziga xos jihatlariga aniqlik kiritiladi. Xullas, ana shunday tadqiqotlar istiqlol davri qodiriyshunosligining o'ziga xos jihatlarini belgilashga imkoniyat yaratdi. Jumladan, bu davr tanqidchiligida Qodiriy biografiyasi va ijodiy laboratoriyasining hali ochilmagan sahifalariga e'tibor qaratildi va ko'plab xotiralar, maqolalar, esselar yaratildi.

Ikkinchidan, sho‘ro davri qodiriyshunosligi rivojiga hissa qo‘shgan ko‘plab munaqqidlar o‘zlarining oldingi qarashlarini nazardan o‘tkazib, yangicha nuqtai-nazar asosida yaratilgan tadqiqotlarini chop etdilar. Jumladan, bunday adabiyotshunoslar qatarida M.Qo‘shjonov, S.Mirvaliev, A.Aliev, H.Abdusamatov, U.Normatov kabilarni tilga olish mumkin.

Uchinchidan, bu davrda yetishib chiqqan yosh munaqqidlar izlanishlarida qodiriyshunoslik masalalarida yangicha metodologik tamoyillar asosida talqin etila boshladi. Bu o‘rinda yozuvchi X. Sultonovning adabiy-tanqidiy maqolalarini, M.Qarshiboev, B Karimov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini misol keltirish mumkin.

II-BOB. ABDULLA QODIRIY HAYOYOTI VA IJODI XORIJIY OLILMLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI TAHLILI

1.fasl. Jadid nomoyandalari adabiy merosini xorijda o'rganilishi tahlili.

Horijlik mutahassislarning fikricha jadidchilik Rossiya imperiyasida musulmon tabaqalariga oid bo'lgan va turli o'zgarishlarga yangi zarurat va imkoniyat paydo bo'lganda islohot kerakliligiga ishora qila oladigan yangi guruhlarining paydo bo'lishi natijasida o'rta chiqdi. Jadidlar yangi sharoitdagi qiyinchiliklarni yenga olishi uchun jamiyatni qaytadan tartibga solish orqali taraqqiyot va tsivilizatsiyaga erishish mumkinligini ilgari surishgan. Jadidlar zamonaviy yevropadan o'zlashtirilgan yangicha tashkilotchilik va fikr almashish usullarini qo'llagan holda savodxonlikni keng yoyish, jamiyat a'zolarini yangi shakldagi ijtimoiy munosabatlarga o'rgatish, birdamlikning yangi turlarini ularning ongiga singdirish kabi maqsadlarga intilganlar. Bundan tashqari, jadidchilik Rossiya imperiyasi musulmonlarining siyosiy intilishlarini shakllantirgan Imperiyaning eng kuchaygan davrida o'rta chiqdi. 1917 yilgacha (va inqilob davrida ham) mustaqillik masalasi jadidlar uchun uncha dolzarb emas edi. Ular Rossiyani liberal, demokratik tolerant davlat sifatida qayta shakllanishi yo'lida ish olib borishardi. Bu jarayon ichida, musulmon jamiyatlari isloh etilishi lozim edi, islomning o'zi yangicha, kerak bo'lsa eski an'analaridan voz kechilgan holda qayta talqin qilinishi kerak edi. Urf-odat va an'analar ustivorligi, jamiyat ustabqasi qayta ko'zdan kechirilishi kerak edi. Va shunday qilindi ham.

Bugungi kunga solishtirsak ahvol qanday? Jadidlar tomonidan emas, balki Sovetlar tomonidan bo'lsa ham, jadidlar hohlagan narsalarning ko'pi amalga oshirildi, To'la savodxonlikka, ijtimoiy munosabatning yangi shakliga va milliy birdamlikka erishildi. (bu holat musulmon olamining qolgan qismida ham amalga oshdi. Bu maqsadlarga 1920-yillarda boshlangan davlatlarni modernizatsiya qilish harakati orqali erishildi) Halqaro holat ham tamoman boshqacha. Bugungi kunda davlat bo'lish uchun normativ shakli bu millat-davlat shaklidir. Milliy mustaqillik g'oyasiga erishildi.

Jadidchilik ilk bor oshkoralik davrida ziyolilar tarafidan esga olingandi,

biroq u davrda ular asosan zamonaviy (Sovet davri) o'zbek adabiyotining asoschilari sifatida eslangandi. Faqatgina 90-yillarning o'rtalariga kelib ular jiddiy tarixiy yondoshuv bilan muhokama mavzusiga aylandilar. Amaldagi xukumat va ziyoli qatlamning katta qismi "siyosiy islom,"dan xavotirdalar. Jadidlarning islomiy kelib chiqishi ularni noqulay ahvolga solib qo'yadi. Shunga qaramay ular O'zbek davlatchiligi yo'lida jon fido qilgan shahidlar, halqning qahramon vakillari kabi usullarda ulug'lanadi. Biroq ularning Islom g'oyalariga qo'shgan hissalar deyarli tilga olinmaydi. Hattoki, yangi O'zbek Islom Ensiklopediyasida (Xusniddinov 2004) jadidchilikka oid hech bir ma'lumot yo'q. Jadidlarning urf-odat va an'analarga qarshi munosabatlari hozirgi kungi rasmiy islom qarashlariga teskaridir. O'zbekiston musulmonlar idorasi Islomning Hanafiylik oqimi an'analari doirasida deb belgilab qo'ydi. va uni turli oqimlarning qarshiliklaridan himoya qiladi Idora ba'zi nuqtalarda jadidlar bilan bilan bir xil qarashga ega. Masalan u qarshi bo'lgan narsalar orasida to'y marosimlarga katta xarajatlar sarflash bor. Biroq shunga qaramay, musulmonlar idorasi jadidlar haqida fikr bildirmaydi.

Inglizchalashtirilgan tarjimalarga nazar tashlasak, ular bir qator tarjimonlar tomonidan tarjima qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Misol tariqasida Voshington Universitetida faoliyat ko'rsatayotgan tarjimon Karolin Veyni olishimiz mumkin. U Xoji Muinning "Mazluma xotin" (the oppressed wife) va Oybekning "Bolalik" (The childhood) asarlarini qisqartirilgan xolda inglizchalashtirgan. Tarjimon asarlar tarjimasida o'zbek realiyalarini o'g'irishda bir oz kamchiliklarga yo'l qo'ygan, ammo bu nuqsonlar asar mazmuniga va kitobxon ongiga tug'ri etib borishiga salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Abdurauf Fitratning "Xindistonda bir Farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida munozarasi"(Debate between a teacher from Bukhara and a European⁶) asarini Amerikalik olim Villiam Xannavey tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. U asarni 1911-1912 yillarda Istambulda nashr etilgan "Matba-i islamia-i Xikmat" jaridasining 30-53betlarida fors tilida e'lon qilingan "Munozarai Mudarrisi Bukxarai makatib-i Jadida" nusxasidan tarjima qilgan.

Amerikaning Karolina universitetida faoliyat ko`rsatayotgan professor Adib Xolid xam nomoyondalarimizning bir qator asrlarini tarjima qilgib inglizxon kitobxonlar e`tiboriga xavola etgan. U Munavvar Qorining Turkiston gazetasining 1906 yil 26 sentyabrdagi sonida nashr etilgan “Islax ne demakdur” (What is reform) asarini, Abdulxamid Sulaymon Cho`lponning “Sadoi Turkiston”ning 1914 yil 4 iyul’, 25 iyul’, 26 oktyabr’, 5 noyabrdagi sonlarida nashr ettirilgan, xamda Sirojjiddin Axmad va Ulug’bek Dolimovlar tomonidan “SHarq yulduzi” jurnalining 1992 yil 1-soni 132-138 betlarida qayta chop etilgan “Doktor Muxammadyor” (Doctor Muhammad-yar) asarlarini tarjima qilgan. Bulardan tashqari A. Xolid Behbudiyning 1913 yilda yozgan “Padarkush” (The Patricide) asarini xam qisqartirilgan xolda tarjima qilgan. A. Xaliddan oldinroq bu asarni yana bir olim Edvord Olvort to`liq tarjima qilganligidan xabarimiz bor. Uning tarjimasini 1986 yilda Ural oltoy yilnomasining 84-93 betlarida bosilib chiqqan. Edvord Olvort bu asarni (Murder as metaphor in the first Central Asian drama) O`rta Osiyodagi birinchi drama deb xisoblaydi.

Professor Adib Xolid va ko`pgina grant va unvonlar sohibiga aylanishiga uning sobiq Sovet ittifoqi davrida hali omma e`tiboriga xavola etilmagan diniy vaziyat va musulmonlarning ijtimoiy xolatini yoritib bergan kitobi bo`ldi. Uning Amerika Qo`shma shtatlaridagi aniqrog`i Karleton kollejidagi ilmiy faoliyati va dunyo bo`ylab qilgan safarlari uni bu kiobini yozilishiga turtki buldi.

Dastlab u "***The Many Ways of Being Muslim in the Modern World: Episodes From the Soviet History of Islam,***" ya`ni “Xozirgi zamonda musulmon bo`lishning ko`p yo`llari: Islom dinining sovetlar daridagi ko`rinishidan lavxalar” mavzularida ma`ruzalar tashkil etdi. Uning maruzalarida Markaziy Osiyo haqida turli xildagi oldi qochdi gaplarga asoslanmaganligi tezda omma nazariga tushdi. F. Xolidning maruzalarini boshqa joylarda tashkil etishiga Oq uy vakillari ham xech qanday noroziliklar bildirishmadi. Chunki tashkil etilgan ma`ruzalarda u yoki budavlat nomini bulg`ovchi safsatalar yo`q edi.

⁶ Чалез Курцман. “What is reform”

Adib Xalid «Politics of muslim cultural reform. Jaddizm in Sentral Asia» ya`ni Musulmonlarning madaniy isloh siyosati “Markaziy osiyoda jadidizm” kitobi 2000 yili Oksford universiteti nashriyotida 335 betli “Musulmunlarning madaniy isloh siyosati “Markaziy Osiyoda jadidizm” (The Politics of Muslim Cultural Reform. Jadidism in central Asia)” kitobini nashrdan chiqaradi. Kitob kirish, 8 bob, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va qisqartmalardan iborat bo`lib, unda 1860 va 1870 yillarda Markaziy Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olishnilishi, Jadidchilarning paydo bo`lishi, maktablarda Islom bilan birga zamonaviy fanlarni ham o`qitishlari tarafdorlari bo`lishlari, Ta`lim, adabiyot va nashr qilish orqali jadidchilar Islom bilan zamonaviy bilimlar mutunosibligini vujudga keltirish uchun qilgan o`rinlari, boshqa Islom davlatlari bilan ilmiy va madaniy aloqalar o`rnatish kabi mavzular keng yoritilgan.

A.Xalid ushbu kitobi orqali Viskonsin Madison universitetining tarix fani doktori darajasiga erishadi. Muallif Professor Adib Xalid bu va boshqa bajargan ilmiy ishlari uchun 2005 yili kelgusidagi “Sovet Islom tarixi va Markaziy Osiyo tarixini qayta yaratish” loyixalari uchun 5 ta muhim ilmiy mukofotlarga sozovor bo`ldi.

Amerikali olim E.Olvort ko`p yillardan beri Fitrat biografiyasi, ijodiy faoliyati, O`rta Osiyo, xususan Turkistonda istiqloq, ozodlik g`oyalarining qaror topishi, shakllanishidagi o`rni masalalarida keng qamrovli tadqiqotlar olib bormoqda. Uning Berlinda nashr etilgan “Fitratning ilk ijodi va faoliyati; buxorolik jadidchi: Fitrat asarlari tahlili va tartibi” nomli kitobi mana shunday tadqiqotlar qatoriga kiradi.

Xorijlik o`zbekshunos mazkur tadqiqotida H. Boltaboev, I. G`aniev, N. Yo`ldoshev, va turk olimi Yusuf Ovchilar tayyorlagan Fitrat asarlari bibliografiyasiga qo`shimchalar kiritib, o`zbek – xorij olimlari tadqiqotlaridagi Fitratning nafaqat yo`qolgan balki nashr etilgan asarlari nashrlari xronologiyasi bilan bog`liq chalkashliklarga aniqlik kiritgan va ilk marotaba Fitrat asarlari alfavitli bibliografiyasining to`liq shaklini taqdim etgan. O`zbek va turk olimlari tayyorlagan bibliografiya dastlabki manbalar qatoriga kirsada, ularni yagona

manba sifatida qabul qilib bo'lmashligini E. Olvort quyidagicha izohlaydi:

“Tarixiy hujjatlar va birlamchi manbalar A. Fitratning o'smirlik yillari va siyosiy – ijtimoiy faoliyati haqida ma'lum darajada ma'lumot bersalar-da, lekin u haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun yetarli emas”.

Ozod Sharafiddinov Fitratning o'smirlik yillari, biografiyasi, Istanbulda boshlagan ijodi bilan bog'liq manbalar ishonchli emasligi va bu borada qo'shimcha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadgan masalalar borligini aytgan edi.

E.Olvortning Abdurauf Fitrat ijodiy faoliyati bilan bog'liq xulosalaridan uni o'z davrining madaniy markeri sifatida ham qabul qilishimiz mumkin bo'ladi. Madaniy markerlar til, urf odatlar, din, vatan, ijtimoiy turmush, iqtisod, siyosat, tarix va millat o'tmishi bilan chambarchas bog'liq jamiyatning asosiy quroli hisoblanib, har qanday mushkul vaziyatlarda millatni saqlab qolish, madaniy me'rosimizni kelajak avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ular millat o'zligini rivojlantirishda, uni qayta qurish jarayonini yengillatishda asosiy mas'uliyatni gardaniga olgan shaxslar hisoblanadi. E. Olvortning Fitrat asarlari sinxronik klassifikatsiyasi va tahlil metodlarininng besh kategoriya asosidagi tasnifiy xulosalari Fitrat xususidagi fikrlarimizning to'g'riligiga asos bo'la oladi, deb o'ylaymiz.

E. Olvort har qanday yozuvchining, jumladan Fitrat asarlarida bo'y ko'rsatgan ma'naviy-ijtimoiy sohadagi chuqur mulohazalari, o'ziga xos idrok uning individual o'tmishi va temperamenti asosida kashf qilingan, degan xulosaga kelganligi bois u “Fitratning ilk ijodi va faoliyati; buxorolik jadidchi: Fitrat asarlari tahlili va tartibi“ nomli kitobida uning avtobiografiyasiga, hayotida yuz bergan har bir siyosiy- ijtimoiy voqeaga jiddiy e'tibor qaratadi. Asarlari yaratilishi tarixi, ularga sabab bo'lgan vaziyatlar, voqealarni izohlashga harakat qiladi. Masalan, u “Qiyomat” asarining yozilish tarixini bol sheviklarning Markaziy Osiyodagi noto'g'ri boshqaruv tizimi va Fitratning ularga bo'lgan nafrati bilan izohlaydi.

Amerikalik olim tadqiqotidagi bu metodologik asos keng ko'lamli tahlilni ta'minlamasa-da, shaxsiy hayoti bilan bog'liq har qanday voqeani o'rganish uning millat manfaati bilan yashash shiori, bu bilan bog'liq psixologik kechinmalarini

asarlarida tasvirlash darajasi namoyon bo'ladi. Shu o'rinda Fitratning siyosiy-ijtimoiy va adabiy faoliyatini bir biridan ajratib o'rganib bo'lmashligini ham ta'kidlash joiz.

E.Olvortning Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, jumladan O'zbekiston madaniyati tarixi va adabiyotiga bag'ishlangan qator ilmiy asarlar yaratganligi ma'lum. Uning 85 — yillardan keyingi ilmiy faoliyatidan bexabar ko'pchilik adabiyotshunos va tarixshunos olimlarimiz bugungacha unga faqat g'arb "sovetologi", tarixshunos yoki siyosatshunos olim sifatida qaraydilar. To'g'ri, uning Mustaqillik yillariga qadar yaratilgan tadqiqotlariga, huddi bizda bo'lgani kabi, ma'lum siyosiy- mafkuraviy jarayonlar o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Lekin E. Olvort Fitrat nasriy asarlari "Munozara", (1909 -1911) "Hind sayyohi bayonoti" (1911-12) "Qiyomat", (1923), "Bedil bir majlisda" (1923), "Shaytonning Tangriga isyoni", (1924) "Abulfayzxon" (1924), "Ovunchoq" "Mirrix yulduziga" kabi she'rlari, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" (1913) dramasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida badiiy asarni tarixiylik printsipida, adabiyotshunoslik me'zonlari asosida tahlil qilib, ijodkorlarning Sovet tsenzurasidan himoyalaniish va davr uchun muhim ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni targ'ib qilish uchun foydalangan ko'p ma'noli, metaforik obrazlarning asl mohiyatini tadqiq etib, badiiy asar zahiridagi haqqoniy tushunchalar mantiq'ini fosh etadi va original topilmalarni kashf qiladi.

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, agar xorij olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar sovet adabiy siyosatiga mos kelsa, albatta, inobatga olinar va yuksak e'tirof ramzi o'laroq, maqolalarda undan iktiboslar keltirilar edi.

Xorijdagi olimlarning bu xizmatlari o'zbek adabiyotini, xususan, Abdulla Qodiriy ijodini dunyo adabiy jamoatchiligiga tanishtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyo olimlari o'zbek adabiyotiga qiziqib, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy singari adabiy siymolarimiz ijodini tadqiq etayotgan ekan, bundan faqat faxrlanmoq va o'sha fikr-mulohazalardan xabardor bo'lmoq joiz, albatta.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, G'arb olimlari, umuman, xorijlik

o'zbekshunoslarning 90-yillarda yozgan ilmiy ishlari 60-70-yillardagiga nisbatan chuqurroq mafkuraviy-siyosiy talqinlarga qaraganda qiyosiy-ma'rifiy talqinlar ko'proq ko'zga tashlanadi.

2. FASL. XORIJDA QODIRIY ADABIY MEROSINI TADQIQI VA SHARXI

XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalarining ijodi ba'zan sobiq ittifoq olimlari, ba'zan rus olimlari tomonidan o'rganildi; maqolalarida, xotiralarida e'tiroflari berildi. Bundagi e'tiroflar, xususan, Qodiriyshunoslik doirasidagi fikr-muloxazalarda ko'proq o'zbek romanchiligining maydonga kelishi katta voqea ekani aytiladi.

Masalan, tatar olimi Zarif Bashir 1929 yili Qozonda nashr etilgan «O'zbek adabiyoti» kitobida: «Uning (Abdulla Qodiriy nazarda tutiladi - B. K.) 1923 yildan so'ng bosilgan «O'tkan kunlar» nomli zo'r bir romani uch bo'lim bo'lib nashr etildi. Mundarijasi Xudoyorxon diyoridan olib yozilgan bu romanni o'qigan chog'ingda, o'zingni butunlay shu diyorning qaxramonlari orasida his qilasan...», degan satrlar bor⁷. Qozoq yozuvchisi Muxtor Avezovning: «Abdulla Qodiriy (Julqunboy) yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday paydo buldi...», degan e'tirofini ko'pchilik yaxshi biladi. Shu singari muloxazalar boshqa kardosh millat yozuvchilari tomonidan xam aytilgan⁸. Bundagi adib novatorligini, ustozligini ulug'lovchi fikrlar o'zbek adabiyotshunosligida mavjud qarashlarga juda hamoxangdir. Shu bois, aynan qodiriyshunoslikka oid nisbatan o'zgacha talqinlar bor-yuqligini ko'zatish niyatida xorij olimlari tomonidan bitilgan manbalarni imkoni kadar bir sidra ko'zdan kechiramiz. Zotan, sobiq sovet mafkurasi xukmronlik etib turgan yillarda Fitrat va Chulpondek zabardast adiblar xususida xorijda qator e'tiborli maqolalar yuzaga kelgan edikim, bu xususda ilmiy jamoatchilik muayyan tasavvurga ega buldi. Mudhish qatag'on qurbonlari bo'lgan bu ijodkorlarning shon-shuxrati 20-30-yillardayoq turk dunyosiga ma'lum edi. Shu sabab ular xususidagi fikr-muloxazalar oqimi butun XX asr davomida to'xtamadi.

Abdulla Qodiriy siymosi ham muxojirotdagi turkiy millat vakillari, shuningdek, G'arb va Amerika olimlarining nazaridan chetda turmadi. 1929-1939

⁷ Bashir Z. O'zbek adabiyoti. Qozon 1929. 15 bet

⁸ Inog'omov R. Qodiriy jahon kezadi. Sharq yulduzi. 1994 3-4 son

yillar oralig'ida Mustafo Cho'qay o'g'li rahbarligida Parij shaxrida «Yosh Turkiston» nomli jurnal nashr etilgan. Unda barcha jadidlarga jiddiy e'tibor qaratilganidek, ba'zi maqolalarda Julkunboyga ham munosabat bildirildi⁹.

Aynan shu «Yosh Turkiston»ning 1931 yilgi 18-sonida Azimzoda ismli muallifning Mashhaddan yozgan «O'tkan kunlarimiz» sarlavhali bir maqolasi borki, Abdulla Qodiriyga munosabat bu o'rinda ancha jiddiy va aybnoma ruhidadir.

30-yillarda S.Xusayn, M.Buzruk singari o'zbek munakkidlari adibning «millatchi», «mayda burjuaziya» vakili ekanligini yozgan, romanlaridan sho'rocha talablarni qoniqtiradigan manzaralar topa bilmay ayblagan bo'lsalar, Azimzoda Abdulla Qodiriyning o'z maqolasida «bo'lshaviklarga sotilg'on» xisoblaydi; adib romanlarini o'qib, unga shunday aybni yuklaydi. Darvoqe, bu o'rinda Botuni bolsheviklarning ishonchli xizmatchisi, Mirtemirni esa «bo'lshaviklar manfaati uchun she'rlar yozadi», «bo'lshavik malaylaridan», deb aytadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu maqoladagi mulohazalar chukur ilmiy-estetik talqinlar natijasi emas, balki mavjud hokimiyat bilan bir oz murosaga kelib ijod etayotgan, tahlikalar ichida kun kechirayotgan milliy bir adibga nisbatan quruq asossiz xujumlardir.

Azimzoda qo'yidagicha yozaveradi: «Abdulla Qodiriy bo'lshaviklar uchun xizmat qilib turadir. Uning «Mexrobdan chayon» degan kitobi milliy ro'mon emasdir. Bu asarda burung'i xonlarning ayblari xayoliy va mubolag'ali bir suratda tasvir etilib, eski an'analar xalaflar nazarinda takbih etiladir; millat va milliyat tuyg'usi alayxinda bo'lg'on bu ro'mon bo'lshaviklar manfaati uchun nashr etilmishdir...

Abdulla Qodiriyning «Mexrobdan chayon» kabi yana «O'tkan kunlar» degan ro'moni bor. Bu asarda bo'lshaviklarga pak makbuldir»¹⁰.

Azimzoda fikricha, Abdulla Qodiriy o'sha romanlarini biryoklama yozgan, chunki qahatchilik xukm surayotgan utla yillar da uning «kalami kunlik ozuqqa»

⁹ O'q to y. Turkiston adiblari vazifasi. Yosh Turkiston. 1937 yil: № 95.

¹⁰ I. Azimzoda. Utkan kunlarimiz. Yosh Turkiston. 1931 yil: № 18.

sotilgan emish. Adib o'z romanlarida o'tgan kunlarimizni qaro buyoklarda bergan, faqat yomonlagan. Holbuki, eski zamonlarda kadim Turkistonda u lug binolar, naqsh, ipak san'ati, ogoch, mis va temir o'ymakorliklari, toshko'mir va qog'oz sanoati rivojlangan bo'lgan. Abdulla Qodiriy o'tmish xususida ro'mon yozar ekan, «bunlarni ko'rmamish va unga otasi-da so'ilamamishdir». Badiiy as ar bilan real tarixiy asarning farkiga bormaydigan muallif fikrlari shunday. Va hatto, bir o'rinda: «O'tkan kunlarimizni yaxshi bilmasdan u haqda ro'monlar yozishga jasorat etish buyuk xiyonatdir», degan iddaoni yozadi. Ehtimol, Azimzoda Turkistonning o'tmishini ulug'lashi, uning buyukligini ovoza kilish lozimligini ta'kidlashi bilan vatanparvarlik, millatparvarlik kilayotgandir. Ammo, uning badiiy voqelikka yondashuvi matndan uzoq. Chunki maqolasida roman voqea-hodisalari yoki muayyan obrazlar taxlili yo'k. Go'yo unga kimdir Abdulla Qodiriy o'sha romanlarida o'tmishni qoralagan, degan gapni yetkazib qo'ygan-u, u romanlarni o'kimasdanoq, o'sha «kora o'tmish»ni «oqlash»ga tushib ketgan ko'rinadi. Har holda maqolaning umumiy pafosi shunday taassurot beradi.

Nazarimda, bu o'rinda Azimzoda fikrlarining inkori uchun uzundan-uzoq dalillar keltirish shart emas. Chunki «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon»ning o'zbek millati ma'naviyatiga, badiiy-estetik tafakkurining yuksalishiga bergan ta'siri Abdulla Qodiriy millat va vatan uchun qanday xizmat etganini ko'rsatadi.

Qiziq holat. Aynan o'sha tarixiy davrda adibga naqadar qiyin bo'lganini tasavvur etish mumkin. Ichkaridagilar uni «millatchi» dan olib, «millatchi»ga solgan bo'lsalar, tashqaridagi bir «millatsevar» kishi o'z talqinlarida adibni «bo'lshaviklarga sotilg'on», tarix oldida buyuk xiyonat qilgan xiyonatchiga chiqardi...

Ikkinchi jahon urushi davrida Berlinda nashr etilgan «Milliy adabiyot» majmuasida «O'tkan kunlar»dan parchalar berildi (1943. 5-son). Q.Isroiljon imzosi ostida bosilgan «Turkiston yozuvchilari haqida bir necha so'z» nomli maqolada -

asosiy ran Cho'lpon xususida bo'lsa-da - Abdulla Qodiriy nomi jadidlar qatorida tilga olinadi¹¹.

Shuningdek, «Milliy Turkiston» majmuasining 1964 yil may sonida Boymirza Hayitning «Turkiston yangi adabiyotida ikki siymo: Qodiriy va Cho'lpon» nomli maqolasi bosiladi. Maqolaning avvalgi kismi Abdulla Qodiriy xususida bo'lib, sarlavhadan keyin «boshqarma» - tahririyat tomonidan shunday eslatma bitilgan: «B.Hayit tomonidan XXVI Baynalmilal sharkshunoslar kurultoyi, turkshunoslar bo'limida, Dehli 7. 1. 1964 da bergan ma`ruza»¹².

B.Hayit Abdulla Qodiriy asarlarining matnini maxsus adabiy-nazariy nuqtai nazardan talqin etmaydi, balki u mumiy yusinda adibning hayoti va ijodi xususida fikr bildiradi. Albatta, bu davrga kelib Abdulla Qodiriy allaqachon oqlangan va uning ijodi sovetlar mafkurasiga begona emasligi isbotlanayotgan edi.

B.Hayit sobiq ittifoqdagi chiqiishardan farqli o'larok ayrim mulohazalarni bildirdi.

1.«O'tkan kunlar»da «Ho'kand xonligi va Rusiyaning Turkistonga xujumi oldidagi hayot tasvir etilgan»ligini ochiq yozdi.

2.Abdulla Qodiriyning ijodi na «sovetlar birligida va na Ovro'pada» mukammal o'rganilmayotganini aytdi.

3.B.Hayit fikricha, adibning o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi ekanligini har kim har doim zikr etadi. «Lekin sovet adabiyotshunoslari, uning mafkura masalasida ayblaydilar, - deya yozadi u va I.Sultonov fikrlariga piching aralash murojaat etadi, - chunki u «jadidchilik harakati ta`siri ostida qolgan, Turkistonning Rusiya tarafidan ko'shib olinishining taraqqiyparvarligini sezmagan va sinfiy kurashni o'z asarlarida yaqqol ko'rsata bilmagan» emish».

4.Adib oqlangandan keyin, albatta, uning asarlari nashr kilina boshlandi. Biroq «O'tkan kunlar»ning 1958 yilda nashri ilgari nashrlardan farqli edi. B.Hayit roman matnlarini kiyoslab, ba`zi o'rinlar tushurib koldirilganini, ayrim jumlarlar taxrir etilganligini ta`kidlaydi. Jumladan, roman oxirida Otabekning «o'ris bilan

¹¹ Isroiljon Q. Turkiston yozuvchilari haqida bir necha so'z. Milliy Turkiston 1942. № 11.

¹² «Milliy Turkiston» majmuasi. 1964. № 11. 22-26-betlar.

to'qnashma»da shahid bo'lganligi iborasi «chor askarlari bilan to'qnashish»da birikmasiga o'zgartirilganligini misol kilib keltiradi.

Albatta. B.Hayit maqolasida Abdulla Qodiriy ijodining favkulodda yangi, kutil magan talqinlari sezilmaydi. Biroq, unda «millatlar turmasi»da aytish va yozish mumkin bu l magan ayrim gall ar bor. Aynan adabiy siyosat e'tiboridan talqindagi farkni bilish kiyin emas. Tabiiyki, bunday kommunistik jamiyat sari intilayotgan tuzumga nis batan bildirgan shak-shubhalar uning muxolifatdagi juftliklari tomonidan so'z bo'roni ila qarshilanishi shart edi. Adabiyot maydonidagi xukmron siyosatning talabi shunday edi.

XX asr jamiyatida bir-biriga muxolif bo'lgan ikki lager ideologlari bitta adabiy-tarixiy voqelikka ikki xil nazar bilan qaradi. G'oyaviy kurash maydonida bu ideologlar murosaga kela olmaydigan masalalar bor edi. Rus bosqinchilariga, jadidlarga, Cho'lpon, Fitrat va shu jumladan, Qodiriyga munosabat masalasi shu doiraga kiradi.

Zotan, xorijsda ushbu masalalarga o'z munosabatini bayon etgan olimlardan biri Edvard Olvort edi. Uning «O'zbek adabiy siyosati» nomli kitobi bor. Olim unda j ad id adabiyotiga jiddiy e'tibor qaratadi va umuman to'g'ri qarashlarni ham ilgari suradi. Mafkuraviy-siyosiy adabiyotshunoslik namunasi bo'lgan «O'zbek adabiy siyosati» kitobida Abdulla Qodiriy nomi bir necha o'rinda, ya'ni Behbudiyning «Padarkush»iga taklidan «Baxtsiz kuyov» dramasini yozganligi, garchi Abdulla Qodiriy birinchi o'zbek romannavisi bo'lsa-da, diqqat-e'tibordan chetda kolib kelganligi, 1956 yilgi N.Muhiddinovning Abdulla Qodiriy siymosiga alohida e'tibor berganligi kabi qator masalalar tilga olinadi¹³.

Bu fikr-mulohazalar sho'ro adabiyotshunosligidan bir oz farq etar edi, ammo Abdulla Qodiriyning muayyan asari maxsus talqin qilinmaydi va adabiyotshunoslikning, bunday o'zak masalasi bu tip olimlar zimmasiga tushmas ham edi. E.Olvortning kitobidagi fikrlari bilan ham sovet olimlari xisob-kitob qilishga majbur bo'ldilar.

¹³ Edword Allworth. Uzbek Literary politics. London-Paris. 1964. P. 36-37. 72-73, 209.

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, agar xorij olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar sovet adabiy siyosatiga moe kelsa, albatta, inobatga olinar va yuksak e'tirof ramzi o'laroq, maqolalarda undan iktiboslar keltirilar edi.

Ma'lumki, 1968 yili Germaniya Demokratii Respublikasi poytaxti Berlinda «O'tkan kunlar» «Die Liebenden von Taschkent», ya'ni «Toshkentlik sevrishganlar» nomi ostida rus tili orqali olmonchaga o'girnlib, nashr qilinadi. Unga olmon adabiyotshunosi Niota Tun so'ngso'z yozgan. Bu adabiyotshunosning fikr-mulohazalari xorijdagi «burjua ideolog»lari qarashlaridan farqli o'laroq qodiriyshunoslikdagi sho'rocha talqinlarga yaqin keladi. Adibning iste'dodini, badiiy tafakkur ravnaqiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlagan N.Tun siyosiy tushunchalar iskanjasidan tashqari chikmaydi va yozadi: «1924-1925 yillar da Abdulla Qodiriy Moskvada o'kiydi, bu yerda o'sha vaktida qizgin munozara ob'ekta bo'lgan yosh rus sovet adabiyotidagi turli masalalar bilan yaqindan tanishadi Moskvada olgan bil im va tajribasi uning ona diyori O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga, mafkuraviy va estetik masalalar ni qayta o'ylab ko'rishga, shu bilan boglik savollarga javob qidirishga yordam beradi». «Abdulla Qodiriy o'zining romanini Oktyabr revolyutsiyasi tajriba-laridan kelib chiqib yezdi. U o'z xalqining aerlar bo'yi ezi-lishida aybdor bo'lgan ijtimoiy kuchlardan nafratlanadi».

60-yillarning oxirlarida yozilgan bu fikrlar bilan kimdir bahslashishi, o'sha tarixiy muxitdagi tal kii tabiatini anglab yetishi va eng muximi adabiy siyosat dastining naqadar uzunligini aniq ko'rishi mumkin. Chunki GDRning ijtimoiy-siyosiy hayoti ham O'zbekistonga ta'sir etib turgan Moskvadagi hukumat tarafidan boshqarilar va shu bois «bir lager » namoyandalarining qarashlari o'zaro yaqin bo'lishi tabiiy edi.

1975 yili Amerikaning Kolumbiya universitetida «Transitional Central Asian Literature: Tajik an uzbek prose fiction from 1909 to 1932», ya'ni «O'rta Osiyoning o'tish davri adabiyoti: 1909 yildan 1932 yilgacha tojik va o'zbek badiiy prozasi» nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun bir ilmiy ish ximoya etiladi. Uning muallifi E.Olvortning shogirdi Eden Nabi ismli olima edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ancha faktlarga boy va xolis yozilgan bu dissertatsion ish markazida, garchi, o'sha davrda o'nlab ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa ham, asosan Sadriddin Ayniy va Abdulla Qodiriy turadi. Dissertant har bir ilmiy masalani yoritishga intilar ekan, shu ikki ijodkor hayotiga, yozgan asarlariga murojaat etadi. Dissertatsiyaning (u 14 bobdan, 240 sahifadan iborat) «Cultural effectes of increased trade», ya'ni «Madaniy an'analarining ta'siri» degan ikkinchi bobida har ikki adibning ta'lim, tahsiliga e'tibor beradi. Abdulla Qodiriy eskicha, yangicha rus-tuzem maktabida ham o'kiganini, S.Ayniyning 30-yillarning oxirigacha eski maktabda olgan bil imi bilan cheklanganini yozadi (25-6et).

«O'tkan kunlar»ning dastlabki tankidi va unga Abdulla Qodiriyning javobi xususida to'xtalar ekan, S.Husayn adibni asossiz ravishda ko'chirmachilikda ayblaganini, shuningdek, Abdulla Qodiriy Jo'rij Zaydon asarlarini Ozarbayjon va turk tillaridagina emas, balki fors tilida ham o'qigan bo'lishi mumkin, chunki bu davrda (ya'ni 20-yillarda) o'sha yozuvchining 20 ta asari fors tiliga tarjima etilgan edi, degan fikrni ilgari suradi (40-bet).

E.Nabi bir o'rinda Abdulla Qodiriy romanchilik mahoratini S.Ayniyga kiyoslab, gak o'zbek romannavisining ustunligini bayon etadi: «Ayniyning tarixiy romanlari G'arb madaniyata nuqtai nazaridan Karaganda o'z moxiyatini to'liq ifodalay olmagan bo'lsa, Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan ikki roman tarixiy roman elementlarini ko'rsatishga ancha yakinlashdi. Shuningdek, ushbu ikki roman ma'lum bir xususiyatlar bilan G'arb romanchiligidan farklanib, ajralib turadi»¹⁴.

E.Nabi e'tibor ini tortgan yana bir jihati shuki, Abdulla Qodiriy xotin-qizlar obr az gada realistik, xie-tuygulari, ichki va tashki dunyosi bilan yorokin tasvirlagan; o'sha davrning boshqa sovet o'zbek va tojik adiblarida aynan xotin-kizlar dunyosi juda sayoz, biryokdama, sovet tuzumini yokdash va eski an'analarni kuruk koralash yusinida yozilgan.

Abdulla Qodiriy realizmi roman oxirida Zaynab obrazini badiiy talqinida yanada ochiqroq ko'rinadi. Yozuvchi «Zaynabni yovuz deya xukm chiqarmaydi», aksincha, uning holatini, iztiroblarini taxlil etadi va «juda go'zal talqinni» maydonga ko'yadi. Jinni deya xukm etilgan Zaynabni hech kim jazolamaydi. «Qodiriyning Zaynabga munosabati gumanitar va realistik... Bu munosabat boshqa muallif-larning ayollar tasvirlangan melodramatik shaklli asar-laridagi munosabatdan butkul fark kiladi Prozada ijod etgan ko'plab yozuvchilar, garchi ayollarning nisbatan ishonarli obrazlarini aks ettirgan bo'lsalar-da, hech biri Qodiriy kabi uning ichki xususiyatlari, ichki dunesini oergan emas»

Shuningdek, mazkur qiyosiy uslubda yozilgan tadqiqotda Abdulla Qodiriyning «Kalvak maxzum...» va «Mehrobdan chayon» asarlari, ularning jozibali tili, o'zbeklar tarixidagi urug'larga e'tibor berganligi, siyosatga va qatagon hamda keyinchalik o'zgargan siyosatning adibga munosabatlari xususida xam qator fikrlar bor. Tadqiqotchi umuman, Abdulla Qodiriy ijodini biladi, o'z ishida H.Qodiriy, Fitrat, G'afur G'ulom, H.Olimjon asarlariga, ba'zan I.Sultonov, V.Zoxidov, L.Qayumov, U.Normatov, S.Mirvaliev, N.Vladimirova, R.Inogomov kabi olimlarning kitob va maqolalariga, asosan esa, ustozi E.Olvortning «O'zbek adabiy siyosati» kitobiga murojaat etadi.

Abdulla Qodiriy ijodining xorijsda o'rganilishini yaxshi tekshirgan adabiyotshunos olim Xayrulla Ismatulla Eden Nabi dissertatsiyasidagi kamchilikni qo'yidagicha ko'rsatadi: «Bu ishning bo'sh tomoni: ishda muallif har ikki adabiyot (o'zbek va tojik) uchun muhim sanalgan katta bir davrni, o'nlab adiblar ijodini 240 saxifada yoritishga uringan. Natijada bu dissertatsiya qisqacha berilgan obzorlar majmuasiga o'xshab qolgan»¹⁵. Xayrulla Ismatulla o'zining «Abdulla Qodiriy abadiyati» nomli maqolasida ancha ma'lumotlar bergan edi. Jumladan, E.Nabi va uning ishi xususida xam. Yukoridagi mulohaza ham shu maqoladan iqtibos.

¹⁴ Eden Nabu. Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932. Columbio University 1975. P. 72. 18

¹⁵ Ismatulla X. Abdulla Qodiriy abadiyati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1994 yil. 14 oktyabr 11 noyabr

Amerikada Abdulla Qodiriy ijodini «The Relationship of Abdulla Qodiriy's Historical Novels to the Earlier Uzbek Literary Traditions» (University of Washington 1980), ya'ni «Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarining ilk o'zbek adabiy an'analariga aloqasi» (Vashington universiteti!, 1980) mavzusida tekshirib, doktorlik dissertatsiyasi yozgan Xristafor Maykel Murfi adib romanlariga «struktural adabiyotshunoslik uslubi bilan» yondashadi. 209 bet hajmli bu dissertatsiya «Kirish» va «Xulosa» bilan birga yetti bobdan tarkib toptan.

Ishning «Kirish»dan keyingi ikkinchi bobi «Abdulla Qodiriyning hayoti va uning ishlariga o'zbeklar bergan baholar» (11-50-betlar), uchinchi bobi «Nazariy asos» (50-61-betlar), to'rtinchi bobi «O'zbeklarning klassik islomiy adabiyoti va folklor an'analarda xikoyaning bayon etish shakllari» (62-119-betlar), beshinchi bobi «O'tkan kunlar» va «Mexrobdan chayon»da xikoyani bayon etish usullari» (120-173), oltinchi bobi «Romanlarda hikoyachi va xikoya qilish uslublari» (174-189) deya nomlanadi. yettinchi bob o'laroq, «Xulosa» yoziladi

X. Murfi struktural analiz metodologiyasini tanlash sababini bevosita adib romanlarining ichki mohiyatiga, ularda o'zi ilg'ab olgan ikkita muxim omilga bog'laydi. Avvalo, «O'tkan kunlar» tadqiqotchiga romandan ko'ra boshka-charoq asar bo'lib ko'rinadi. Ikkinchidan, «O'tkan kunlar»ning bayon uslubidagi juda kup kirralar an'anaviy o'zbek xalq ogzaki ijodida uchraydigan jihatlarni eslatar ekan.

Shu bois, X.Murfi roman struktur asini, bayon uslubini «Alpomish» (qaxramonlik eposi), «Kuntug'mish» (romanik epos), Alisher Navoiyning «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin» dostonlari hamda xalq kitobi «Tohir va Zuxra»larga taqqoslashni ma'kul topadi. Tadqiqotchining diqqatini o'ziga tortgan muxim fakt shuki, «Tohir va Zuxra», «Farhod va Shirin» dostonlari «O'tkan kunlar» mukaddima-sida tilga olinadi. Va demak, kiyos uchun asos xam borligi kurinadi.

Olim dissertatsiyasining «Abdulla Qodiriyning hayoti va uning ishlariga o'zbeklar bergan baholar» bobida bizga ma'lum ma'lumot, fikr-mulohazalarni Oybek, I. Sultanov, H.Qodiriy asarlariga tayangan holda bir sidra takrorlab chiqadi Albatta, bu Abdulla Qodiriy siymosini xorijda tanitish uchun juda muxim edi.

X.Murfi yuqorida sanalgan beshta doston syujeta struktur asini tekshirib chiqqach, «O'tkan kunlar»ga keladi. Voqea-hodisalarning joylashish struktur asini «o'kuvchi kabul kiladigan» (ijobiy) va «o'kuvchi qabul kilmaydigan» (salbiy) tarzda maxsus jadvalga soladi.

Shu jadvaldagi «plyus» va «minus», «ijobiy» va «salbiy» tomonlar kimgadir sodda yoki juy tuyulishi mumkin. Ammo, bu jadval romanning syujet rivojini «ajralish» va «birlashish» tarzidagi izoxi bilan ko'z oldimizda namoyon etadi. Tadqiqotchi syujetni bayon etishning bizning adabiyotshunosligimiz tajribasida ko'rilmagan yulini tanlagan.

Shuningdek, X.Murfi «O'tkan kunlar»dagi konflikt masalalariga, obrazlar uchun tanlangan ismlar va ularning talqiniga, romanda aks etgan tarixiy voqealarga, xarakter va personajlarga, «Mexrobdan chayon» romani syujet voqealari, qahramonlariga e'tibor beradi. Olim fikricha, Abdulla Qodiriy «Mexrobdan chayon»da ham «O'tkan kunlar» romani-dagi kabi ramziy ma'noli ism tanlashga jiddii qaragan.

Tadqiqotchi Qodiriy romanlarining tili yangi va ayni chog'da, o'zbek adabiyota tarixida mavjud xikoya kilish an'analariga yaqin turadi, deydi. Fikr isboti uchun «Mahbub ul-qulub» va «Boburnoma» kiyoslanadi. Xalqning so'zlashuv tiliga yaqinligi, ba'zan xalq dostonlari tiliga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Quyidagi misollarni yozadi: «Mexrobdan chayon» - «Biz o'tgan faslda Anvar bilan Ra'noni Sultonali darvozasida qo'yib...»;

«O'tkan kunlar» - «Endi biz tashqari hovlini qo'yib, mexmonxonaning yonidan ichkari kiramiz...»;

«Alpomish» - «Endi so'zni Alpomishdan eshiting»;

«Kuntug'mish» - «Endi gapni Kuntug'mishdan eshiting».

Bular^ asar fasllarini uzviy bog'lanishga ham ko'mak beradi»

X.Murfi «O'tkan kunlar»da xalq dostonlari uslubidan keng foydalanish sababini, adib o'kuvchi-kitobxon ommasini ko'proq o'ylagan, deb hisoblaydi.

«Mexrobdan chayon» esa struktura jihatidan o'zbek xalq dostonlaridan farq qiladi. Ammo, «O'tkan kunlar» xalq dostonlariga yaqin kelsa, «Mexrobdan chayon»da Abdulla Qodiriy boshqa yo'ldan borgan. Bu romanda yozuvchi xalq dostonlari struktur asidan uzoqlashgan.

Tadqiqotchi Qodiriy romanlaridagi zamon va makon realligini novatorlik-yangilik sifatida baholaydi. Zero, o'tmish xalq epik dostonlaridan ana shu e'tibor bilan ham farqlanadi. Umuman olganda, amerikalik olim X.Murfi dissertatsiyasida bunday muxim xulosalar kup. Ehtimol, ba'zi masalalarda olim bilan bahs-munozara kilish mumkin. Chunonchi, Turkiston xalqining 10-20-yillarda bor-yo'g'i to'rt foizi savodli edi yoki Qodiriy romanlari xalq og'zaki ijodiga go'yo mutlaqo qiyoslanmagan edi, kabi fikrlari shular jumlasidandir.

Abdulla Qodiriy ijodining Amerikadagi muxlisi X.Murfi 1992 yilda «O'rta Osiyo musulmonlari. O'zlikning ifodalanishi va o'zgarishlar» nomli tuplamda «Abdulla Qodiriy va bol'sheviklar. Islohdan inqilobgacha» degan maqola bilan katnashadi. Olim bunda adibning «Baxtsiz kuyov», «Juvonboz», «Jinlar bazmi», «Tinch ish», «Otam va bol shevik» singari bir qator asarlarini tal kii etish jarayonida Abdulla Qodiriyning ijtimoiy karashlarini o'rganadi.

Olim fikricha, Abdulla Qodiriy ba'zi mulla-imomlarni tankid ettan, ammo, u hech kachon islom diniga qarshi yozmagan. Shuningdek, adibning ijtimoiy karashida jamiyatni isloh nuli bilan tuzatib bo'lmaydi, balki inkilobiy yul b il angina jamiyatdagi yomon odatlardan kutilishi mumkin

Albatta, amerikalik olimning «O'tkan kunlar» va «Mexrobdan chayon»dek romanlarni struktural metod asosida talqin kil ishi biz uchun yanpshikdir. Uning tajribasi bizning adabiyotshunoslikda shu yunalishdagi tadkikotlar maydonga kelishi uchun bir namuna bo'lishi ham mumkin. Biroq, Abdulla Qodiriy romanlarini, ularda xalq donoligining xikmatlari uz ifodasini topganligini yoki xalq kulgisidan adib juda o'rinli foydalanganligini bizning olimlarimiz ham juda yaxshi biladi

Demak, X.Murfining tadqiqoti bizda mavjud ilmiy ishlarni to'ldiruvchi va ayni chogda, tadkikot uslubidagi originallik bilan farklanib turuvchi muhim ishdur.

O'tgan asrning 90-yillarida olmon olimlari Abdulla Qodiriy ijodiga jiddiy qaradilar. Maxsus adabiy lugatlarda Abdulla Qodiriy hayoti, ijodi xususida ma'lumot berdilar. Rudolf Radler muharrirligi ostida bir necha yil davomida nashr etib kelingan, ko'p tomlik «Kindlers Neues Literatur yekop»ining 1990 yilda bosilgan 9-tomida «Abdulla Kadyri. O'tgan kunlar» degan ikki betlik maqola shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, G'arb olimlari, umuman, xorijlik o'zbekshunoslarning 90-yillarda yozgan ilmiy ishlari 60-70-yillardagiga nisbatan chukkurroq. Mafkuraviy-siyosiy talqinlarga qaraganda qiyosiy-ma'rifiy talqinlar ko'proq ko'zga tashlanadi.

Masalan, bu o'rinda o'zbek adabiyotshunoslariga yaxshi tanish olmoniyalik olimi, hozirda Gumbold universitetida ishlayotgan professor Ingeborg Baldauf xonimning «Auf der Suche nach der Wahrheit», ya'ni «Haqiqat axtarib» degan maqolasini eslab o'tish mumkin. Mazkur maqola Bambergdagi «Otto Friedrich Universitat»nfla 1990 yili o'tkazilgan sharqshunos olimlar anjumanidagi ma'ruza matnidir. Olima bunda muayyan bir falsafiy tushuncha - haqiqatning evrilishlarini, har davrda haqiqat turli moyiyat tashiganligini, shunga ko'ra har zamonning o'z haqiqatlari bo'lishligini turli o'zbekcha matnlar ustida tadqiq etadi. «Haqiqat» tupgunchasi «jadidchilik, inqilobchilik, millatchilik va g'ayridinchilik ruhidagi matnlarda» turlicha aks ettiriladi. I.Baldauf bu fikrni Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Shokir Sulaymon va Abdulla Qodiriy singari siymolar ijodidan olingan iktiboslar orkali isbot etadi.

I.Baldauf Abdulla Qodiriy ijodiga ham «haqiqat» nuqtai nazaridan yondashadi. Adibning «Haqiqat ochiq so'zlashdadir» degan jumlasidan ham, uning boshiga kelgan, asarlariga tamgalangan nohaqliklardan ham yaxshi xabardor. Abdulla Qodiriyning kolxoz hayotidan olib yozilgan «Shubha» hikoyasiga bizning adabiyotshunoslarimiz kam diqqat qilgan. Olima esa «Shubha»da ikkita shubhani ko'radi. Birinchisi, hikoyadagi xarakter tabiatida ko'ringan shubha. Ikkinchi pgubha esa «metaforaga, badiiy, ijodiy musaffolikka yoki boshqacha kilib

aytganda, sotsialistik realizm metodining asosliligiga, qonuniyligiga bildirilgan». Olimaning bu qarashlarini o'ziga xos nozik talqinlar sifatida qabul etish ham mumkin.

Shuningdek, maqolada «Obid ketmon» asari munosabati bilan, aynan, «haqiqat» so'zi ishlatilgani uchun professor Umarali Normatovning «Obid ketmon» haqiqati» maqolasiga munosabat bildiradi. «... Abdulla Qoddfiy ko'rinishidan haqiqat axtara turib, ko'z oldiga goyaviylik va partiyaviylik tozaligichini qo'ygisi kelmasdi.

Raqiblari esa unga barcha asarlarida va «Obid ketmon»da ham kishilarni ijtimoiy sinflarga bo'lib emas, balki, ikkiga o'zi yasagan sinfga, ya'ni yaxshi va yomonga ajratib tasvirlaganini ro'kach qilib, ta'na toshlarini ota bopshadilar. Bu ta'nalar 1989 yilga kelibgina shubha ostita olindi». Ya'ni U.Normatovning «Obid ketmon»ni yangicha nuktai nazardan talqin etgan, kisha markazida Obid ismli nihoyatda insofli, iymon-e'tiqodli bir inson turganligini ta'kidlagan maqolasi yozildi. Olima U.Normatov sarlavhaga olib chiqqan «haqiqat» so'ziga o'z izlanishlaridagi ilmiy-falsafiy mezon bilan yondashib, bir oz chuqur ketadi. Va shu bois, ayrim ehtimollarini hamda sarlavhaning boshqacha variantlarini o'rta tashlaydi. Olimaning bu jiddiyatini, so'zga e'tiborini inobatga olish kerak, albatga. Ammo, bizningcha, U.Normatov «Obid ketmon» haqiqati» deganda eng avvalo qissaning fazilatlarini, yangicha sharoitdagi yangicha talqinlarini nazarda tutgan bo'lsa ajab emas.

Professor I.Baldauf o'zbek adabiyotini, xususan, Abdulla Qodiriy ijodini o'zicha tushunadi, o'zicha turguntiradi. Ba'zida o'zbek adabiyotshunoslari e'tiborsiz qoldirgan nuqtalarga diqqatni qaratadi.

Olmoniyada Abdulla Qodiriy ijodi bilan jiddiy shug'ullangan olimalardan yana biri Zigrid Klaynmixel xonimdir. Bu olimam ham o'zbek adabiyotshunoslariga yaxshi tanish. O'zaro ilmiy aloqacham ham o'rnatgan. 3.Klaynmixel o'zining 1993 yili nashrdan chiqqan 279 betlik «Sharkona yozish an'anasining rivojlanishi. 1910-1934 yillar o'zbek dramasi va nasriy asarlar tadqiqi» deb nomlangan kitobining maxsus bir bo'limini (201-263-betlar) Abdulla Qodiriy romanlariga bag'ishlaydi

«Turkiston hayotidan Abdulla Qodiriyning ikki romani» deya atalgan mazkur bo'lim: «XX asrda yozilgan hech bir o'zbek kitobi haqida Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» (O'zbeklar hayotidan tarixiy roman) romani xususidagi kabi ko'plab maqola, xotira, latifa va afsonlar tarqalgan emas»¹⁶, degan so'zlar bilan boshlanadi. Shundan keyin Abdulla Qodiriyning obro'-e'tibori, o'zbekcha manbalarga tayanib, «O'tkan kunlar»ning yozilish tarixi, kitobning xalq orasida naqadar sevilib o'qilganligi kabi qator masalalarga to'xtaladi. Olima o'z kitobini olmon tilli sharqshunoslarga mo'ljallab yozgani bois, Abdulla Qodiriyning kimligiga, aniqrog'i, tarjimai holiga doir sanalarga birma-bir murojaat etadi. Uning nazaridan «O'tkan kunlar»ga bagishlab yozilgan Sotti Husayn va Oybek singari siymolarning asarlari ham chetda qolmaydi. Va har ikkala tekshiruvchining asosiy adabiy-ilmiy kontseptsiyasi sotsialistik elementlar bilan bog'liq bo'lganini ta'kidlaydi.

Olima Abdulla Qodiriy romanlaridagi obrazlarni ijobiy va salbiyga ajratish beixtiyor sodir bo'lishini yozgandan so'ng: «Shoir va dramaturglar yetim obrazidan inqilobdan avval ham foydalanishgan edi. Bunday obraz bilan ular odamlar orasidagi ijtimoiy farqni ko'rsatishgan. Jumladan yetim obrazi Abdulla Qodiriy ijodida ham uchraydi»¹⁹¹, deydi. Va Usta Olim hamda Anvarlarni bunga misol qilib beradi.

Shuningdek, 3. Klaynmixel tadqiqotidan: «Muallif Otabek uchun she'riyatdagi obrazlarga xos nutqni prozaga ko'chirdi: oshiq kasal bo'lib qoladi va oh ura boshlaydi», «Ota-bola o'rtasidagiga o'xshash munosabat (gan Yusufbek hoji bilan Otabek haqida - B.K.) na xalq adabiyotida, na masnaviyda va na Jo'rji Zaydon asarlarida ko'zga tashlanadi...». «Biron shaxsga voqeliqda moe tushishi mumkin bo'lgan tasnif va o'zini tutish imkoniyatlari bir necha shaxsga bo'lib-bo'lib berilganga o'xshaydi», kabi e'tiborli qarashlar ko'p. Shunisi muhimki, olima o'z talqinlarida adibning har ikki romanini yonma-yon, uyg'unlikda qiyosiy talqin etadi va o'rni-o'rni bilan xalq og'zaki ijodiga taqqoslab boradi. Bu tamoyil

¹⁶ Kleinmichel Sigrid. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. Studien zur Usbekischen Dramatik und Prosa zwischen 1910 und 1934. 1993. Wiesbaden. F. 201

olimaning «O'tkan kunlar» va «Mexrobdan chayon» romanlarining xotimasiga doyr qarashlarida ham o'z ifodasini to'ldiradi: «Qodiriyning har ikki romani ikki yechimga ega. «O'tkan kunlar»da «kora Homid» ustidan qozonilgan galaba ertaklarda uchraydigan baxtli yechimni eslatadi. Vaholanki, bu bilan romanning ikkinchi qismi tugab, uchinchi kiem boshlanadi. Kumush va Otabekning o'limi baxtsiz yechim bo'lsa ham, u realistik yechimdir, u ertaklarda bo'lishi mumkin emas...

«Mehrobdan chayon» romanining nihoyasi aslida Ra'noning xon saroyiga keltirilishi bilan tugashi kerak edi. Uning otasi to'yga rozilik bergan. Anvar o'zini chetta olgan, to'g'ri sarupolari allaqachon qabul kilib olingan. Ammo, asarda real yechim yo'q. Asarga g'aroyib, sarguzashtli hodisani ko'shish natijasida sevishganlar o'sha takdirdan kutilib koladilar. Ularning maqsadi, o'sha paytda allaqachon Rossiya ko'liga o'tgan Toshkentga yetib olish. Bu yerda ular Qo'kon xonining ta'qiblaridan qo'rqmasa ham bo'ladi. Bu ikkinchi baxtli xotimaga ertaklarda uchraydigan yechim sifatida qarash mumkin»

Olima fikricha, Abdulla Qodiriyning har ikki romani ana shunday ikki yechimlidir. Shunisi e'taborliki, «Mehrobdan chayon» oxiridagi epilog ham yechim-xotima uchun katta imkoniyatlar beradi.

Z.Klaynmixel Qodiriy romanlariga juda katta e'tibor berib, o'z talqinlarida 30-yillardagi S.Husayn, Oybek, 60-80-yillardagi tanishdi qodiriyshunoslaridan I.Sultonov, M.Qo'shjonov, I.Mirzaev, A.Alievlarning fikrlarini inobatga oldi, ba'zan ular bilan bahsga kirishadi.

Zigrid Klaynmixel xonim qalamiga mansub yana bir manba «Die Gestalt des Prosaschriftstellers Abdulla Qadiri im geistigen und kulturellen Leben Uzbekistans» («Yozuvchi Abdulla Qodiriyning O'zbekiston ma'naviy va madaniy hayotidagi o'rni») deya nomlangan bo'lib, bu manba 1990 yil 15-16 iyun kunlari Bambergda o'tkazilgan U rta Osiyoga bagishlangan ilmiy anjumandagi ma'ruza matni hisoblanadi¹⁷. Bu maqolada ham olimaning Abdulla Qodiriy shaxsiyatini, ijodini

¹⁷ Bomberg Mittelasiestudien. Berlin. 1994. 153-168.

yaxshi bil ishi o'z ifodasini toptan. Olima bunda kitobidagi fikrlarini takrorlamaydi. Yangi ma'lumotlar -Izzat Sultonning 1988 yilda yozgan «Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar»i nomli pyesasi, H.Qodiriyning 1989 yil «Yoshlik» jurnalining 4-7-sonlarida e'lon etilgan «Qodiriyning so'nggi kunlari» xotara qissasini eslab o'tadi.

Tadqiqotchining qo'yidagi kuzatishi ham diqqatga loyikdir: «Adabiyot tarixida yozuvchining (Abdulla Qodiriyning - **B.K.**) tugilgan yil i, nasl-nasabi, ta'lim yuli va boy adabiy ijodi haqida ma'lumotlar bor. O'limi masalasi esa ochiq. Albatta, XIX asr qisman XX asrgacha bo'lgan Sharqning ko'pgina shaxslaridagidek, Abdulla Qodiriyning ham tugilgan yili noma'lum kolgan. Hali Abdulla Qodiriy hayotligidayoq uning tugilgan yili 1894, 1895, 1896 va 1897 yil deb berilgan. Hozirda 1894 yil 10 aprel , deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 1989 yilgacha yozuvchi hayotining oxiri ham noaniq bo'lib keldi. U 1937 yil qamoqqa olindi va uning izlari Toshkent kamokxonasida yo'qoldi. Oqlangandan keyin o'lgan yili sifatida 1938, 1939 va 1940 yillar ko'rsatildi. 80-yillarning oxirlariga kelib Habibulla Qodiriy otasining 1938 yil 5 oktyabrda o'limga xukm etilgani va xukm shu kuni amalga oshirilgani hakida ma'lumot oldi»

Darhakiqat, Abdulla Qodiriyning tarjimai holiga o id ma'lumotlar, xususan, arxiv xujjatlari asosida yozilgan manbalar adib ijodining xorijdagi muxlislari e'tiborini ham o'ziga jalb etdi.

Olima I.Sulton p yesasiga to'xtalib, maqolasining oxirida p yes ada foydalanilgan Abdulla Oripovning «Olomonga» (1980) she'rini to'liq keltiradi. Ma'lumki, bu she`rning bir o`rnida:

Surishtirganmiding Qodiriyni yo,

Qalqon bo'lganmiding kelganda balo?

degan satrlar bor. Olima fikricha, irodasizlik va loqaydlik xususida jiddiy o'ylash lozim.

Umuman olganda, I.Baldauf, Z.Klaynmixel singari olmoniyalik olimalarning Abdulla Qodiriy ijodiga doyr xolis ilmiy qarashlari ilmiy

jamoatchilikka yetkazilsa, adib xakidagi fikrlashuv maydonining yanada kengayishiga hech shubha yo'q.

Ma'lum bo'lmoqdaki, XX asr mobaynida turli toifadagi xorij olimlari Abdulla Qodiriy ijodini turli aspektdan qarab tadqiq etganlar. Albatta, ularning ba'zilarida tuzumlar orasidagi g'oyalar, qarashlar kurashining ta'siri xam, ayrimlarida o'ta sub'ektlashuv holatlari ham kuzatiladi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy ijodini ikkinchi bir millat yozuvchilari ijodiga qiyosan xolis o'rgangan yoki mutlaqo yangi yunalishda - strukturalizm metoda asosida talqin etgan olimlar ham bo'ldi.

Xorijdagi olimlarning bu xizmatlari o'zbek adabiyotini, xususan, Abdulla Qodiriy ijodini dunyo adabiy jamoatchiligiga tanishtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyo olimlari o'zbek adabiyotiga kiziqib, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy singari adabiy siymolarimiz ijodini tadqiq etayotgan ekan, bundan faqat faxrlanmoq va o'sha fikr-mulohazalardan xabardor bo'lmoq joiz, albatta.

III-BOB– A. QODIRIYNING "O`TGAN KUNLAR" ROMANI VA TARJIMA MASALASI

1-fasl. A.Qodiriy va "O`tgan kunlar" romanining yozilishi

"O'tgan Kunlar" by Abdulla Qodiriy: Translated first novel written by a Jadid writer in the Uzbek language. The novel is set on the eve of the Tsarist Russia's invasion of Tashkent and is long considered an attempt to reform Central Asian society in the face of colonial encounter. *O'tgan Kunlar* has long been considered the national novel of Uzbekistan and is highly regarded by all levels of Central Asian society.¹⁸

Ushbu keltirilgan jumladan kurinib turibdiki Indiana universiteti professori asarni yuqori baholaydi. Uni birinchi roman ekanligini va ingliz tiliga tarjima qilinganligini va "O'tgan kunlar" milliy roman hisoblanishini hamda Markaziy Osiyo jamiyatining barcha jabhalarida katta ahamiyatga ega ekanligi takidlangan.

Badiiy tarjimada juda murakkab masalalardan biri jonli halq tili, ya'ni jaydari til xususiyatlarini ifodalashdir. O'zbek halqining boy meroslaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani tila ma'noda O'zbek halqining milliy urf-odatlarini ifodalabgina qolmay, o'sha davrda halq boshidan kechirgan qiyinchiliklar, nohaqliklarni tasvirlagan. Asarda xonliklar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar va bu kurashlar natijasida jabrlangan oddiy halq turmushi yaqqol ochib berilgan:

"Yetmish kunlik bir muhosaradan keyin uch ming sipohni bir yarim mingga tushurib, bir yarim ming sipohni Toshkand qirgonlari ostida qubon berib, Normuhammad qushbegi quruq qaytishga majbur bildi.

Bu etmish kunlik qamal vaqtida Azizbekning sodiq fuqarolari bilgan toshkandliklar astoyidil unga xizmat qilib, jonbozlik ko'rsatib, nihoyat qipchoqlarni umidsiz Qo'qonga qaytarishga noil bildilar. Noil bildilar, ammo o'zlari ham yahshigina bo'lib qoldilar. Yetmish kunlik bir qamal, yetmish kunlik

¹⁸ Jackson K. Kellogg. Indiana University, Dept. of Central Eurasian Studies, 2009

chetdan va eng ozi qishloqlardan munosabatni uzib turish, albatta Toshkandni bo'ldirib qo'ygan edi. Bu yetmish kunlik bir qamal Toshkandning hali yigishtirib kira olmagan donlarini, ekinlarini yov qilida qoldirdi. Savdo ishlari butunlay to'xtab, savdogarlar zo'r falokatga uchradilar. Kosib, faqir halqning holi juda yomon edi: nonsiz, donsiz, kiyimsiz, suvsiz alohozal-qiyos siz bilib eng oxirgi chekka etkandagina qamol balosidan "yaltirasin, qaltirasin" muzaffariyat bilan qutildilar. Halq izining bu etmish kun ichida tortqan mashaqqat va azoblarini qipchoqlar ustidan chalgan galabasi bilan bir daraja yuvdi-da, kasbiga, ekin-tikiniga urinib ko'rishni o'yladi, to'grisi o'ylay ham olmadi...".¹⁹

Ushbu yuqorida keltirilgan parcha orqali shuni e'tirof etishiimz mumkin-ki, asarda tila ma'noda tarixda halqning ko'rgan azob-uqubatlari-yu, kuch-qudrati namoyon etilgan. Xalqning qamaldan qiynalib chiqishi, o'z yurtlariga sadoqati, qolaversa yomon bo'lsa ham Azizbekka bilgan sadoqati va natijada Azizbekning yana jabr-zulmiga qarshi qudratli zarbasi juda ochiq-oydin ifodalangan. Bu erda yana shuni ta'kidlash mumkin-ki, ulug'lik timsoli bilgan, Yusufbek Xojini halq uchun, tugilib isgan yurti uchun iz jonini berishga ham tayorligi o'quvchida vataniga bo'lgan muhabbatini yana bir karra oshiradi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Asarni to'la ma'noda o'tmish voqea-hodisalari qamrab olgan. Zero, bu borada yozuvchining o'z so'zlarini ilova qilib o'tish orqali bunga dalil keltirgan bo'lamiz:

"Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, rimonchilik va xikoyachiliklardan ham yangarishga, halqimizni shu zamonning "Tohir-Zuhra"lari, "Chor darvesh"lari, "Farhod Shirin" va "Bahromgir"lari bilan tanishtirishka o'zimizda majburiyat xis etamiz.

Yozmoqga niyatlanganim ushbu - "O'tkan kunlar", yangi zamon rimonchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi - ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan

¹⁹ Qodiriy A. "O'tkan kunlar", Toshkent, G'Gulom nashr., 1992 yil, 6-bet

maydonga chiqishi, ahllarining etishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida xavasimda jasorat etdim, xavaskorlik orqasida kechaturgan qusur va hatolardan chiqib turmadim.

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydi. Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin O'tgan kunlardan, tariximizning eng ko'rlik, qora kunlari bo'lgan keyingi "xon zamonlari"dan belguladim".²⁰ Abdulla Qodiriy (Julqunboy).

Yuqoridagi muallifning fikridan ham yaqqol kirinib turibdiki, asar xonliklar davrining barcha kirdikorlarini ochib tashlashga xizmat qiladi. Albatta har bir halq o'z tarixi, o'z kechinmalariga ega biladi. Mana shu tarixni, kechinmalarni, urf-odatu, rasm-rusumlarni ifodalashda, albatta yozuvchi-ijodkor milliy an'analarimizga suyangon holda qalam tebratadi. Demoqchimizki, asarda milliylikka xos so'z va iboralar ko'plab ishlatilgan va bular O'zbek halqining o'zligini, alohida urf-odatlarga ega ekanligini ifoda etuvchi kichik bir omil sanaladi.

Bizga ma'lumki, "O'tkan kunlar" romani xorij davlatlarida ham chet tilida qayta yaratilgan, ya'ni nemis va ingliz tiliga o'girilgan. Albatta, bunday original asarni bir tildan ikkinchi bir tilga igrish tarjimondan juda katta bilim va tarjimonlik mahoratini talab qiladiki, tarjima asari iz jozibasini yiqotmasligi kerak biladi. Chunki, asarda ishlatilgan ko'plab milliylikka xos bilgan sizlarni, boshqa tillarda teng ekvivalentlari bilmasligi mumkin, lekin tarjimon bundan chiqish yo'lni to'g'ri tanlay olishi kerak. "Tarjima nazariya"si qonunlaridan ham bizga ma'lumki, ekvivalenti bilmagan terminlarni izohlash orqali bir tildan ikkinchi bir tilga tushuntirib berish mumkin, lekin bu narsaga mukkasiga ketish ham o'quvchini zeriktirib qo'yadi, asarni iqishida biroz qiyinchilik tug'diradi va nihoyat uni bezdiradi. Mana bunday muammolarni hal etish esa haqiqiy mehnat talab qiladigan, ko'p izlanish orqali amalga oshirish mumkin. Quyida asardan olingan parcha orqali O'zbek milliy urf-odatlari, milliylikka xos iboralarni e'tiboringizga xavola etamiz:

²⁰ ²⁰ Qodiriy A. "O'tkan kunlar", Toshkent, G'ulom nashr., 1992 yil, 5-bet

"O'zbek oyim ellik yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabi'atlik bir xotin bo'lsa ham, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi yolg'iz erigagina emas, Toshkand xotinlariga ham om edi. O'zga xotinlar uning soyasiga salom berib to'ylarida, azalarida, qisqasi tiq etkan yiginlaridagi uylarining to'rini O'zbek oyimga atagan edilar. Bir bugina emas, qiz chiqaraturgan, o'gil uylantiradigan, sunnat to'yi qiladigan xotinlar o'z to'ylarini O'zbek oyim kengashidan tashqari jo'nata olmas edilar. O'zbek oyim aralashgan to'yliq xotinlarning ko'ngullaridagi orzu-xavaslar ham erlari tomonidan kamchiliksiz bajarilar, Chunki "O'zbek oyim shundog' buyurdilar" degan so'z erlar uchun ham farz kabi eshitilib, O'zbek oyimning aytkanicha xozirlik ko'rila boshlanar edi. Bu tomondan qaraganda O'zbek oyimning o'tkirligi erlar tomonidan ham tasdiq etilganligini iqrar qilishga to'g'ri keladir.

O'zbek oyim uncha-muncha to'yu azalarga "kavshim ko'chada qolgan emas" deb bormas edilar".

Ushbu asardan olingan bir ikki parchaga yaxshiroq e'tibor bilan nazar soladigan bo'lsak, mana shu kichikkina bir parchada ko'plab O'zbek millatiga xos bilgan milliy, so'z va iboralarni uchratishimiz mumkin, masalan:

Chala-dumbul - savodsiz, chalasavod...

Soyasiga salom bermoq - hurmat qilmoq, hurmat qilganda ham ortiqcha hurmat qilmoq, ya'ni aytgan bir ogiz gapini ikki qilmaslik...

Tiq etkan yig'in - bu erda har qanday itkazilishi kerak bilgan marosim, ya'ni kattami, kichikmi qandaydir bir yigin tushuniladi...

Uylarining to'risi - Ya'ni O'zbeklarda aziz mehmon albatta uyning tirisi, ya'ni yuqorisida itiradi. Uyning tirisi deganda eshikka nisbatan yuqori bilgan tomon tushuniladi...

Sunnat to'y - bu ham O'zbek millatiga xos bilgan marosim bilib, o'g'il bollarga yoshligida o'tkaziladigan tiyi tushuniladi...

Kavishi ko'chada qolgan emas - ushbu ibora orqali, kishining dimog'dorligi, man-manligini tushunish mumkin. Bu erda O'zbek oyim ushbu ibora orqali o'zini yuqori tabaqadanligini va past tabaqa sanalmish kishilarning uylariga borishni

o'ziga ep kirmasligini ifodalamoqda. Buni yozuvchi Shunday chiroyli ifodalanganki, mana shu qisqagina ibora orqali juda katta ma'no ifoda etilmoqda va uni izohi uchun qanchalik ko'p so'z va gaplar ishlatidi.

Yuqorida ko'rib, o'tganimizdek shunday so'zlar borki, ularni o'zbek tilining o'zida ham izohlash kerak bo'ladi. Asardan olingan ma'lum so'zlarning izohlari bilan tanishar ekanmiz, bunday milliylikka xos bilgan so'z va iboralarni bir tildan ikkinchi bir tilga igirish uchun tarjimondan, yuqorida aytganimizdek, juda katta bilim va mahorat talab qiladi. Bilim deganda ham tarjimashunoslik bilimidan tashqari, qaysi tildan igirayotgan bilsa anashu halq tili, urf-odati, milliy an'analari bilan tila-tikis tanish bilish tarjimondan talab qilinadigan bilim hisoblanadi.

Asarda O'zbek milliy an'analari, urf-odatlari tasvirlanishi bilan bir qatorda O'zbek ayolining vafosi, sodiqligi, mardligi-yu, jasurligi va shu bilan bir qatorda oqilu donoligi Kumush obrazi orqali juda chiroyli tarzda tasvirlab berilgan:

"Oradan o'n daqiqa chamasi fursat kechgan edimi, Qushbегining a'yonga so'zlab o'tirgan hikoyasini tezroq bitishini kutmakda bilgan nihoyat chidalmay o'rnidan turdi va:

- Dor ostiga borib hukm ijrosi vaqtida xozir turushimga ijozatlari biladirmi?- deb so'radi. Ul bu so'zni tugatar-tugatmas o'rda qorovuli Pirmat ko'rindi-da, Qushbegiga qulliq qildi:

- Bir xotin kishi arzim bor deydir, kirsinmi?

Qushbegi qo'rboshiga ruhsat ishorasini berib, Pirmatka dedi:

- Kirsin.

O'xshamagan yerda bir xotinning arzga kelishi Qo'rboshining ko'ngliga shubha soldi. Majhula xotinning qanday arzi bo'lganligini bilib ketishga tilasa Qushbegidan ruhsat olib qo'ygani uchun mahkamadan chiqishga majbur edi. Qo'rboshi mahkama eshigidan dahlizga chiqar ekan, eskigina paranjiga o'ralgan bir xotin Qushbegi to'g'risiga to'xtab, bukilib ta'zim qildi. Xotinda hayajon va entikish holatlari bor edi. Shuning uchun Qo'rboshining boyagi shubhasi yana kuchaydi, Qushbегining ko'zidan yo'qolib turish maqsadida o'zini eshikning orqasiga olib ketmay to'xtadi.

Xotin shoshilib kavishini yechdi-da, eshik ostida nimanidir parangi ichidan oxtarindi. Xotinning bu xarakatiga tushunolmay ajablangan Qushbegi:

- Ichkariga kirib arzingizni so'zlang, opa,-dedi.

Xotin ichkariga kirdi va Qushbegi oldiga borib unga nimadir berdi-da, orqasiga qaytib eshik yoniga kelib turdi. Xotinning berib ketkan narsasi uch, to'rt buklangan bir qogoz edi. Qushbegi sekin-sekin qogoz taxlarini ocha boshladi...

Xudo rizosi uchun tezroq. Yo'qsa... ikki gunohsizning qonlariga botarsiz!

Xotinning bu so'zidan a'yonlar bir-birlariga qarashdilar. Qushbegi tez-tez qogoz taxlarini ochib bitirdi va yo'g'on qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni o'qumoqqa oldi. Maktubni o'qub chiqish uzoqqa cho'zilganliqdan xotin nihoyatda toqatsizlangan edi. Oxirda Qushbegi maktubning so'ngrog'iga kelib to'xtadi-da, chaqirdi:

- Pirmat, Pirmat!

Pirmat yugurib kirdi.

- Labbay, taqsir!

Qushbegining tovushida shu choqqacha eshitilmagan bir holat bor edi:

- Darrav haligi osilish uchun yuborilgan gunohkorlarning orqasidan ot bilan yugir! Dor ostidan bo'lsa ham qaytarib kel! Buyrug'imni Qo'rboshiga aytasang unar!

Pirmat qulliq qilib dahliz tomonga qaradi:

- Qo'rboshi ham shu yerdalar, - dedi.

- Chaqir!

Daahlizdan Qo'rboshi kirib qulliq qildi.

- Xizmat, taqsir.

- Yaxshi, siz ketmagan ekansiz, - dedi Qushbegi, - Pirmat bilan borib, darhol boyagi gunohkorlarni qaytarib kelingiz.

Shubhasini bekorga bo'lmaganini sezgan Qo'rboshi yonida tik turguchi xotinga qarab oldi:

- Sabab, taqsir?

- Sababini surishtiradigan vaqt emas, chop dedim, chop!

Qo'rboshi qulliq qilib Pimat bilan chiqdi. Uning keyinidan Qushbegi "padar la'nat" deb so'kinib a'yonlarga qaradi. Endi xotinning hayajoni biroz bosila tushkan edi. Qushbegi qo'lidagi xatni yana o'qushga tutindi. A'yonni shahar bunchalik ishga yaragan Qushbening qo'lidagi maktubga va uni keltirguvchi xotinga qarashmoqda edilar. Qushbegi maktubni ikkinchi marta o'qib chiqib xotinga qaradi:

- O'lturingiz, singlim,-dedi.

Xotin o'ltirmakka bilgan edi paranji ichidan uning atlas kiylaklari va nafis oq qo'llari ko'rinib ketdi. Qushbegi yer ostidan xotinni kuzatdi-da, qo'lidagi maktubning orqa, o'ngini tekshirib qaradi. So'ngra xoindan so'radi:

- Qutidor bilan Otabekning kimi bo'lasiz, singlim?

- Qutidorning qizi, Otabekning xotin.

Bu so'zni eshitguvchi a'yonlar bir-birlariga qarashib qo'ydilar.

- Buni nega ilgariroq olib kelmadingiz?

Qushbening bu savolidan Kumushbibini qo'irqunch bir ma'noni ongladi. Go'yo "ish o'tgan so'ng kelibsan" degandek tushungan edi. Shuning uchun ul tiroq ovoz bilan so'radi:

- Endi yaramaydimi?

- Yo'q, yo'q, qizim, - dedi Qushbegi, - men nega kecha va o'tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman.

Kumushbibini bir entikib qo'ydi va o'zini to'xtatib:

- O'zim ham bu maktubni shu bu kun ko'rdim,-dedi.

- Maktubni ilgari ko'rmagan edingizmi?

- Ko'rmagan edim.

- Maktub qayerda ekan?

- Uning eski kamzulining cho'ntagida ekan.

Shu gapdan keyin Qushbegi maktubni o'ziga yaqin o'lturgan Azim ponsad boshiga uzatdi:

- Siz ham o'qib ko'ring-chi, ponsad, - dedi va Kumushdan so'radi, - o'quganmisiz?

- O'quganman.
- Eringizning xukumatka qarshi harakatini ilgari ham bilar edingizmi?
- Qanaqa xarakatini?
- Masalan, biz otangiz bilan eringizni nima uchun osmoqchi bo'ldiq?
- Haqsiz, gunohsiz!
- Bu maktub bilan eringizni o'limdan qutula olishini sizga kim aytdi?
- O'zim bildim.
- Bo'lmasa ilgaridan eringizni o'sha xarakatini ham bilar ekansiz-da?
- Yo'q taqsir, - dedi Kumush. ..."21

Asardan olingan ushbu parchada O'zbek ayoli Kumushning donoligi, mardligi va sadoqatliligi tasvirlangan. Bundan tashqari o'sha davrning nohaqliklari-yu, o'z foydasi uchun hech narsadan toymaydigan badnafs kishilarni "Xomid" va "Qo'rboshi" o'razlari orqali juda chiroyli ifodalangan.

Olingan parchani yaxshiroq o'qib chiqadigan bo'lsak o'zbek milliyligiga hos bilgan iboralar- "kamzul", "taqsir", "Majxula", "Qushbegi", "Qo'rboshi", "paranji", "kavish", "ponsad" kabi sizlar ko'plab ishlatilgan bilib, ushbu siz va iboralarni boshqa halq tiliga o'girish birmuncha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

2-FASL. "O'TGAN KUNLAR" ROMANINING INGLIZ TILIDAGI TARJIMASIDA MILLIYLIKNI AKS ETTIRILISHI

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan-dan so'ng o'zbek adabiyotida, jumladan tarjimachilik sohasida ham ulkan yutuqlarga erishildi. O'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlari xorijiy tillarga tarjima qilina boshlandi. O'z navbatida o'zbek xalqi ham jahon adabiyoti durdonalaridan bevosita baxramand bo'la boshladi.

O'zbek adabiyoti o'z durdona asarlari orqali jahon adabiyotini boyishiga hissa qishgan. Ya'ni, o'zbek adabiyotining asl durdonalari bo'omish Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Komil Yashin, Zulfiya, Abdulla Qahhor kabi yozuvchilarimizning sermazmun asarlari nafaqat O'zbek adabiyotini, balki, butun jahon adabiyoti xazinasini boyitib bormoqda.

O'zbek tilidan ingliz va nemis va ingliz tillariga ham bir qancha asarlar tarjima qilingan. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan parcha, "O'n sakko'z ming olam oshubi...", "Kirgali xusningni zoru..." g'azallari, bir qancha aforizmlari, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" povesti, "Shohi sizana" dramasi, O'zbek xalq ertaklari, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani ingliz va nemis va ingliz tilida nashr qilingan bilsa, Alisher Navoiyning bir qator aforizmlari, "Qush tili" asari, bir qator O'zbek halq ertaklari, qolaversa muhtaram prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning ko'plab asarlari ingliz va boshqa tillarda dunyo yuzini kirdi.

Har bir millat o'ziga xos yashash sharoiti, tili, madaniyati, psihologik xususiyatlari, xullas, milliy xarakteriga, urf-odatiga ega. U yoki bu millatning o'ziga xos xususiyatlari badiiy asarda aks etib, uning milliy koloritini tashkil etadi. Milliy o'ziga xoslikning o'ziga xos asosiy belgilaridan biri realiyalardir. Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, tahalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, xayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bilinishlarni ifodalovchi so'zlar,

²¹ Qodiriy A. "O'tkan kunlar", Toshkent, G'ulom nashr., 1992 yil, 84-bet

muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi soʻz va iboralar kiradi.

Oʻzbek tildan chet tilga tarjima qilish ishining qanday ahvolda ekanligi bilan tanishish, jumladan bu tarjimalarda Oʻzbek halqining milliy turmush taxliti, urf-odatlari va tarixan tarkib topgan anʼana va udumlari qanday aks ettirilayotganligidan xabardor bilish muhimdir.

Tarjimada milliy oʻziga xoslikni aks ettirishda u yoki bu halq vakiliga xos psixologik xarakterlar, odat, qiyofa, muomala normalari, hulq-atvor va marosimlarini bera bilash ham katta ahamiyatga ega. Chunki, har bir millat kishisining bunday xususiyatlarini tasvirlash badiiy asarga milliy tus beradi. Quyida misol tariqasida Abdulla Qodiriyning "Oʻtgan kunlar" romanida "milliy" xarakterlarni ingliz tilida berilishini eʼtiboringizga xavola etamiz. Darhaqiqat Abdulla Qodiriyning "Oʻtgan kunlar" romani ingliz tiliga qandaydir bir shaklda oʻgirilgan va mana shu oʻgirilgan tarjimadan bir parchasini quyida keltiramiz:

"Kuyavlarga uchinchi soʻroqda javob berish odat hukmida boʻlsa ham, Otabek bu takalluvga chidalmaydir. Goʻyo uchinchi soʻroq oʻrniga "Endi olmas ekansiz Kumushbibini ..." deb majlis buziladigandek sezilardi-da, hamma tovushini qoʻyib, barchagʻa eshittirib, "Qabul qildiq!" deb yuboradir.

